

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI
TARIX FAKULTETI
TARIX TA'LIM YO'NALISHI
«JAHON TARIXI» KAFEDRASI

**«XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Angliya
madaniyati
(adabiyoti, tarixshunosligi)»**

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

Bajaruvchi: ***Qurbonov N. Z.***

Ilmiy rahbar: ***Yakubova M. B.***

Malakaviy bitiruv ishi "Jahon tarixi" kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2017 yil _____ majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma №_____).

Kafedra mudiri:

dots. M.M. Xoshimova

Malakaviy bitiruv ishi YADAKning 2017 yil _____ iyundagi majlisida himoya qilindi va _____ foizga baholandi (bayonnoma №_____)

YADAK raisi:

A'zolari:

Samarqand-2017

MUNDARIJA

KIRISH	01-07
	betlar
I BOB. XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA ANGLIYADA MADANIY HAYOTNING YUKSALISHI.	
I.1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti.....	08-18
	betlar
I.2. Kashfiyotlar, Ilm-fan va texnika yutuqlari, mashhur olimlar.....	19-25
	betlar
I.3. Badiiy adabiyot namunalari va ularning namoyondalari.....	26-35
	betlar
II BOB. TASVIRIY SAN’AT, ME’MORCHILIK VA ARXITEKTURA NAMUNALARI, ULARNING TURLARI VA USLUBLARI.	
II.1. Tasviriy san’at namunalari, uning turlari va janrlari, eng mashhur namoyondalari.....	36-47
	betlar
II.2. Sahna va teatr san’ati, ijod namunalari,.....	48-56
	betlar
II.3. Badiiy arxitektura va me’morchilik namunalari, qurilish uslublari, badiiy estetik bezak turlari.....	57-61
	betlar
XULOSA	62-65
	betlar
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI	65-67
	betlar
ILOVALAR GLOSSARI	68-70

KIRISH.

Isloh qilish jarayonlarining borishi hamda natijadorligi, mamlakatimizning yaqin kelajakdagi istiqboli shaxslarning qanday bo'lishiga, qanaqa ma'naviy madaniy va axloqiy qadriyatlarni shior qilib olishiga bog'liq bo'ladi.

Islom Karimov.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi. Jamiyat rivojlanib borgan sari insonlar, xalqlar, millatlar o'rtasidagi ma'naviy-madaniy, iqtisodiy, siyosiy munosabat va aloqalar rivojlanib boraveradi. Moziyga qaytib ish ko'rish xayrlidir. Madaniy tradisiya deyilganda ham o'tmish madaniyatidagi halqchil, gumanistik tomon, ularni o'zlashtirish, ulardagi yuksak badiiy mahoratni yangi asarda taraqqiy ettirish, yutuqlari, ijodiy metodlaridan samarali foydalanish nazarda tutiladi. Mavzuning maqsad vazifasi ham aynan ana shu jihatlarga qaratilgan. Bugungi kunda dunyoning eng rivojlangan davlatlaridan biri bo'lgan Angliyaning o'tmish tarixi va madaniyati har qanday insonni qiziqtirishi tabiiy hol. Mavzuning dolzarbligi ham Jahon siyosati va madaniyati tarixida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan bu hududning nisbatan qisqa davridagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy yutuq va kamchiliklarini ochib berishga qaratilgan.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Bu davr ingliz tarixi va madaniyati tarixchilar, madaniyatshunoslar, faylasuflar va san'atshunoslar tomonidan yaxshi o'rganilgan. Ayniqsa Rus tarixchilarining bu boradagi tadqiqotlari va izlanishlarini a'lohida ta'kidlab o'tish kerak. Lekin bu borada O'zbek tarixchilarining olib borgan ishlarini ijobiy baholab bo'lmaydi. Ya'ni juda ozchilikni tashkil etadi. Olib borilgan tadqiqotlar asosan shu davrdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga qaratilgan. O'zbek tarixchilaridan ham bir qator tarixchilar jumladan Sh. Ergashov¹ bu borada samarali ishlar olib borgan. Bu boradagi adabiyotlar va manbalar, tadqiqot ishlari va mualliflarning ba'zilarini quyida keltirib o'tamiz:

¹ Эргашев Ш. Жаҳон тарихи. Т., Шарқ. 2015.

Lukov A,² Vladimir Malinkovich,³ Kolpinski Yu.⁴ D, Drach G. V,⁵ Knabs G.S,⁶ Norin E,⁷ Gregrev I. V,⁸ Jilyakov I,⁹ Kertman Lev,¹⁰ Rodrigues A. M,¹¹ Krevoguza M,¹² Chekalov D. A, Kondratov V. A,¹³ va boshqalar.

Malakaviy bitiruv ishining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Malakaviy bitiruv ishi SamDU tarix fakulteti Jahon tarixi kafedrasining malakaviy bitiruv ishlari rejasi asosida bajarilgan. Hamda kafedraning bosh mavzusi bilan ham chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining obyekti. Bitiruv malakaviy ishining obyekti XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Angliyaning madaniy hayoti tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Bitiruv malakaviy ishining predmeti, dunyo ilm-fani va madaniyatiga yuksak hissa qo'shgan ingliz (Angliya) madaniyatining unchalik katta bo'lmagan davrini o'rganish, vorisiylik asosida kechgan madaniyat yutuqlarini yoritib berish uni tadqiq qilishga qaratilgan. Madaniyatshunoslik sohasidagi tadqiqotlar birinchidan, materialning ijtimoiy jihatiga asoslanadi. Tadqiqotchilarning ko'rsatishi bo'yicha madaniyat obyektlari bo'lmish – insonlarning yashash tarzi, ularning madaniy dunyoqarashi, tili, tafakkuri va boshqa jihatlarini o'rganishga kirishilganda, har qanday tadqiqotchi uchun begona bo'lgan davr va madaniyatni tushunish oson bo'lmaydi. Shuning uchun, tadqiqotchi madaniyatshunoslikka doir muammolar yechimini topishdan avval, o'zi izlayotgan hodisaning mazmunini mukammal nazariy jihatdan tushunib

² А. Луков. История культуры Европы XVII-XIX веков. М., ГИТР. 2011. С. 50-76

³ Владимир Малинкович. Очерки истории европейской культуры нового времени.

⁴ Под общей редакцией Ю. Д. Колпинского и Н. В. Яворской. Всеобщая история искусств, Т 5. М.: Гос. Издательство «Искусство». 1964.

⁵ Г. В. Драч, В. К. Королев, О. М. Штомпель. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. «Феникс» 2-изд. 2002. С. 356-357.

⁶ Г. С. Кнабс, И. В. Кошдаков, Т. Ф. Кузнецова и др. Культурология: История мировой культуры: Учеб. Пособие. М.: Издательский центр «Академия», 2003.

⁷ Е. Норин, О. Швидковский, С. Хан-Магомедов. Искусство Великобритании. М., МГУ. 2001. С. 35-54.

⁸ И. В. Григорьев. Новая история стран Европы и Америки. М., МГУ. 2001.

⁹ И. Жияков от. ред. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. 2002.

¹⁰ Кертман Лев. География, история и культура Англия.

¹¹ Новая история стран Европы и Америки XVI-XIX века. Ч 2. Под ред. А. М. Родригеса, М. В. Пономарева. М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС. 2010.С. 477-564

¹² Новая история стран Европы и Америки. Под редакцией И. М. Кривогуза. 5-е издание. М.: Дрофа, 2005 г.

¹³ Чекалов Д. А. Кондратов В. А. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. ФЕНИКС. 2005 С. 304-314

yetishi lozim. Madaniyatshunoslikning metodining ikkinchi jihat, bu tahlil qilinayotgan madaniyatni boshqa madaniyatlar bilan taqqoslab ko'rishdir.

Madaniyat taraqqiyotining muhim umumsotsiologik qonuniyatlaridan biri vorisiylik qonunidir. Vorisiylik negizida hayotiylik yotadi. Kishilar o'zidan oldingi avlodlar yaratgan madaniy boyliklarga tayanib yashaydilar, ularga tayanib yangiliklarni yaratadilar. "Agar vorisiylik negizida hayotiylik bo'lmaganida edi, biz uchun o'tmish sovuq, befoyda, o'lik va qiziqarsiz bo'lib qolaverardi", deb takidlaydi J.Neru¹⁴.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- *Angliyaning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi madaniyati bilan tanishish, uni o'rganish.*
- *Madaniyatni tadqiq qilishda ijtimoiylik, holislik va tarixiylik nuqtai-nazardan yondashish.*
- *Turli davr va turli shaxslar tomonidan yozilgan manbalarni to'plash, ularni yoritishda kompleks yondashish.*
- *Boshqa tillardan tarjima qilingan manba va adabiyotlarni mazmun jihatidan o'zgarishga uchrashiga yo'l qo'ymaslik.*
- *Bitiruv malakaviy ishning mavzu doirasidagi ilmiy, amaliy asoslarini ochib berish.*
- *Madaniy tradisiya jarayonlarida yaratilgan asar yoki ijod na'munasini o'rganishda muayyan siyosiy mafkuraga bog'liqlik jihatlari bor yo'qligini chuqur tahlil qilgan holda uni badiiy imkoniyatlaridan foydalanish.*
- *G'arb madaniyati va mafkurasining gumanist tomonlarini o'zlashtirish orqali uni milliy istiqlool g'oyasi tamoillariga moslashtirish.*

Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi, davriy chegarasi. Bitiruv ishi – Kirish, asosiy qism, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, hamda **ilovalar** Glossari tarzida rejalashtirilgan. Asosiy qism ikkita katta bobdan va har bir bob uchtdan paragrafdan iborat. Mavzuning davriy chegarasini Angliyaning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi madaniy hayoti tashkil etadi. Bunda Angliyaning yarim asrdan

¹⁴ Джавахарлал Неру. Открытие индии. Москва 1955. С. 25.

biroz oshiqroq tarixiy taraqqiyot jarayonida dunyo madaniyati tamadduniga qo'shgan ulkan hissassi haqida yoritib berishga harakat qilingan.

Tarix va madaniyatshunoslik fanlari barcha ijtimoiy va gumanitar fanlar bilan aloqadorligini hisobga olgan holda, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati bilan birga, mavzu bo'yicha tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati ham keltirilgan. **Ilova** Glossari qismida esa mavzuda bayon etilgan tarixiy jarayon va sanalarga, mavzu doirasidagi faktlarga qo'shimcha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning manbalari. Agliyada nashr etilgan ingliz mualliflari va xorijiy davlatlardagi tadqiqotchilar tomonidan nashr etilgan Angliyaning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy masalalariga bag'ishlangan ilmiy jurnallar materiallari, ilmiy tahlili natijalari hamda shu davrda yashagan madaniyat arboblari yaratgan asarlari. Muziy va Arxiv matiriallari.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Ushbu Malakaviy bitiruv ishida keltirilgan ma'lumotlar, avvalo, o'rta maxsus va oily ta'lim tizimlari uchun, shuningdek keng jamoatchilik, tarix fakulteti talabalari, yangi zamon madaniyati va san'at bilan qiziquvchilar, Angliya Respublikasining yangi zamon tarixiga bag'ishlangan referat, mustaqil ishlar yozish jarayonida foydalanishi mumkin. Ishda qayd qilingan mulohazalar Angliyaning XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi madaniyati borasidagi bilimlarni chuqurlashtiradi. Angliyaning yangi tarix davrini o'rganish bo'yicha to'planayotgan manbashunoslik bazasini ma'lum darajada kengaytiradi.

Tadqiqotning nazariy-uslubiy asoslari. Malakaviy bitiruv ishida tadqiq etilayotgan masalalarga tarixiy haqiqat va xolislik nuqtayi-nazaridan yondashilgan. Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A. Karimovning asarlarida tarixiy tadqiqotchilarlar oldiga qo'ygan vazifalardan kelib chiqib, mavzuni yoritish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish ko'zda tutilgan. Ilmiy muammoni o'rganish va tahlil qilishda tarixiy – falsafiy uslublardan foydalanilgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqotda yangi va zamonaviy progressiv ketma-ketlik nazariyasi asos qilib olindi.

I BOB. XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA ANGLIYADA MADANIY HAYOTNING YUKSALISHI.

I.1. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Angliyaning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayoti.

Dunyo iqtisodiyotida Angliyaning o'rnini u o'z sanoat birinchiligini yo'qotgunga qadar saqlanib keldi. XIX asr ikkinchi yarmiga kelib iqtisodiy rivojlanish sur'atlari pasaya boshladi. 70-yillardan ingliz kapitali mamlakat ichkarisida sezilarli darajada kamaydi. Ayniqsa, mamlakat tashqarisiga kapital chiqarishning ko'proq foyda keltirishi uning chetga ko'plab chiqarilishiga olib keldi.

XIX asr 70-yillaridan Angliya jahon sanoat ishlab chiqarishidagi monopol o'rnini yo'qota bordi. Dunyo ustaxonasi maqomini yo'qotayotgan bo'lsa-da, Angliya hali juda katta mustamlakalarga ega, dengizda hukmronlikni, jahon savdosida vositachilikni, sug'urta va bank ishlarida yetakchilikni egallab kelayotgan edi. Bu hol mamlakatni avvalgidek katta foyda bilan ta'minlab turardi. Jahon iqtisodiyotida Angliya maqomining o'zgarishi, u o'zining sanoatdagi gegemonligini yo'qotishidan ancha oldin boshlangan edi. Bu yerda iqtisodiy taraqqiyotning sur'ati susaydi; 70-yillardan boshlab Angliya kapitalidan mamlakat ichkarisida kam foydalanildi, eng foydali soha kapitalni chetga joylashtirish bo'lib qoldi.¹⁵

XIX asrning oxirgi choragi davomida ingliz eksporti doimiy ravishda pasayib bordi. AQSh va ayniqsa Germaniyada bu ko'rsatkich o'sdi. Angliya ko'p miqdorda kapital eksport qiluvchi davlat bo'lib qoldi. Ingliz iqtisodchilarining hisob-kitoblariga ko'ra, mamlakat tashqarisi va koloniyalarga joylashtirilgan Britaniya kapitali milliy kapitallarning taxminan 15 % ini tashkil etdi.¹⁶

Bu vaqtga kelganda qator Yevropa davlatlari va AQShda sanoat inqilobi tugallangan edi. XIX asr o'rtalarida Yevropaning ko'plab davlatlaridagi erkin

¹⁵ Эргашев. Ш. Жаҳон тарихи. Т., Шарқ. 2015. 152-б.

¹⁶ Новая история стран Европы и Америки. Под редакцией И. М. Кривогуза. 5-е издание. М.: Дрофа, 2005 стр. 541

savdo siyosati proteksionizmning yangi to'liqlariga duchor bo'ldi. Chet davlatlar ingliz zayomlari hisobiga Angliyadan sanoat korxonalari jihozlarini sotib oldilar va o'z mamlakatlarida sanoatni ribojlantirdilar. Shunday bo'lsa-da, XIX asr 70-80-yillarida Angliya umumiy ishlab chiqarish hajmini saqlab qoldi. AQSh va Germaniya ishlab chiqarish sur'atlari bo'yicha Angliyani ortda qoldira boshladi.

Buning asosiy sabablaridan biri – Angliyaning fabrika va zavodlaridagi uskunalarga mablag'lar ajratish kamaygan edi. Shunga qaramasdan Angliya o'zining savdo bozorlari va xom ashyo manbalari bo'lgan ulkan mustamlakalarini saqlab qolayotgan edi. Bu mustamlakalar, shuningdek, arzon ishchi kuchi ham edi. Ingliz sanoatchilari past ishlab chiqarish sharoitida ham katta foyda olish imkonini saqlab qoldilar. Texnika va texnologiya jihatdan orqada qolishi tezda ishlab chiqarish hajmida namoyon bo'ldi. AQSh Angliyani po'lat eritish, cho'yan ishlab chiqarish, ko'mir qazib olish bo'yicha Angliyani quvib o'tdi. Germaniya esa savdo sohasida Angliyaning jiddiy raqibiga aylandi. 90-yillarda esa ingliz koloniyalarida nemislarning arzon tovarlari paydo bo'la boshladi.

Ingliz to'qimachilik mahsulotlari dunyo bozorida hali hamon birinchilikni saqlab qolayotgan edi. Biroq metallurgiya va metallni qayta ishlash sanoati nemis va amerikaliklarning kuchli raqobatiga uchradi. O'z kapitalini og'ir sanoatga joylashtirgan ingliz burjuaziyasi birinchi navbatda an'anaviy tashqi bozor konsepsiyasini qayta ko'rib chiqish talabi bilan chiqdi. Asosiy e'tibor kartellar - tashkil qilish, proteksionizm va Britaniya imperiyasining bozorlari ahvoliga qaratildi.

1878-1879-yillardagi sanoat inqirozi Angliyani og'ir ahvolga solib qo'ydi. Shundan keyin deyarli hech bir jiddiy ko'tarilish bo'lmadi. 1882-yilda esa ingliz iqtisodiyotida navbatdagi inqiroz ro'y berdi. 1888-1889-yillarda ingliz iqtisodiyotida jonlanish va iqtisodiy o'sish boshlandi. 1890-yilda boshlangan jahon pul inqirozi va uning ortidan boshlangan Angliyadagi sanoat inqirozining 1892-1893-yillarda o'z cho'qqisiga yetdi. 1894-yilda esa u depressiyaga aylandi. Hatto 1889-yilda ham, ya'ni iqtisodiy o'sish bo'layotgan davrda ham, rasmiy statistika

idoralari faqat Londonning o'zida 7 mln 300 ming kishi kambag'allar, och-yupunlar bo'lganligini qayd etgan.¹⁷

1875-1895-yillarda davom etgan agrar inqiroz davomida Angliyada qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi taxminan 2 barobar qisqardi. Bu esa ko'plab mayda va o'rtahol fermerlarning xonavayron bo'lishiga va fermerlik bilan shug'ullanuvchi aholi sonining keskin kamayishiga olib keldi. Inqiroz 90-yillarning 2-yarmida lendlordlar bilan tomonidan rentaning qisqartirilishi (1/4) dan keyin chekindi. Don mahsulotlari yetishtirish sohasi yuqori intensiv chorvachilik va parrandachilik uchun oziq-ovqat bazasiga aylana boshladi.

Angliyaning sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha orqada qolayotgani yangi daromad manbalarini izlashiga olib keldi. Bu esa chetga kapital chiqarish bo'lib qoldi. Agar XIX asrning 70-yillarining oxirida chetga kapital chiqarish 22 mln funt sterling bo'lgan bo'lsa, 80-yillarning oxirida bu ko'rsatkich 103-mln funt sterlingga yetdi. XIX asr oxiriga kelganda kapital chiqarish Angliyaning asosiy daromad manbalaridan biriga aylandi.

Angliyadan chetga kapital chiqarish turli shakl va turli yo'nalishlarda amalga oshirildi: ingliz sanoatchilari Gollandiyada ipakchilik fabrikasini qurishdi; Belgiyada, Rossiyada va boshqa qator Yevropa mamlakatlarida po'lat ishlab chiqarish zavodlari qurishdi; ingliz kapitalistlari Yevropa qit'asida barpo etilayotgan temir yo'llarga kapital kiritishdi; ingliz kompaniyalari dengiz savdosi kommunikatsiyasiga subsidiyalar ajratishdi; *fraxt* (kemada yuk tashish haqi, kira haqi) va sug'urtadan katta foyda olishgan. Shunday bo'lsa-da, kapitalning kattagina qismi koloniyalarga, shuningdek, Yevropa qit'asidan boshqa hududlarga, asosan, AQSh va Janubiy Amerikaga joylashtirildi. Shuning bilan bir vaqtda Angliyaning o'zida aksionerlik jamiyatlari ko'magida kapitalning yangilanishi kuchaydi. Bu jarayon ancha sekin bordi. Biroq 90-yillarda kartellar tuza boshlagan aksionerlik jamiyatlari kuchli terstlar va konsernlarga aylanishdi.

¹⁷ Новая история стран Европы и Америки. Под редакцией И. М. Кривогуза. 5-е издание. М.: Дрофа, 2005 стр. 542

Monopoliyalashtirish, o'z navbatida, yangi bozorlar izlashga, yangi ekspluatatsiyalarni egallashga turtki bo'ldi.¹⁸

1868-yildan 1874-yilgacha Angliyada hokimiyat tepasida liberal partiya turdi. Uning lideri Liverpul negosiant oilasidan chiqqan Uilyam Gladston bir necha o'n yil ingliz liberalizmining yo'l boshchisi va g'oyaviy rahbari bo'lgan. Liberallar ingliz iqtisodiy g'emonligining turg'unligi haqidagi fikrlardan kelib chiqqan holda o'z ichki va tashqi siyosatini ishlab chiqqanlar. Ular xalqaro siyosatda Angliya yagona yirik sanoat mamlakati sifatida doimo hal qiluvchi rolni o'ynaydi deb hisoblaganlar. Shundan kelib chiqqan holda Angliya uzoq muddatli ittifoq yoki boshqa davlatlar bilan qandaydir blokka kirishga majbur bo'lmagan. Oqibatda bunday tashqi siyosat "ajoyib izolyatsiya siyosati" nomini oldi.

Ishchilar harakati bosimi ostida Gladston bir qator ijtimoiy va siyosiy islohotlarga qo'l urdi. 1871-yilda qabul qilingan qonun ishchilar uyushmalariga yuridik shaxs huquqini berdi. Biroq ayni shu yilda jinoyat kodeksiga kiritilgan o'zgarishga ko'ra, namoyishlar ta'qiqlandi, ish tashlashlar o'tkazishga og'ir zarba berdi. 1872-yilda umumpalataga saylovlarda yashirin ovoz berish joriy etildi.

Bu cheklovchi islohotlar liberallarga muvaffaqiyatlar keltirmadi. 1874-yilgi parlament saylovlarida liberallar partiyasi mag'lubiyatga uchradi va hukumatga Benjamin Dizraeli boshliq konservatorlar keldi.

Konservatorlarning ichki siyosati liberallarga qarshi "mas'uliyatsiz individualizm" shiori ostidagi kurash bilan o'tdi. Dizraeli ularni munofiqlik bilan "iqtisodiy hayotga" davlat aralashuvini cheklashda aybladi. Hokimiyat tepasiga kelgach konservatorlar mamlakatda ta'sirlarini mustahkamlash va kengaytirish maqsadida ijtimoiy qonunchilik sohasida qator ishlarni amalga oshirishdi. "Xo'jayin va xizmatkorlar haqidagi" Qonun 1875-yilda "Tadbirkorlar va ishchilar haqidagi" Qonun bilan almashtirildi. Ushbu qonunga muvofiq har ikkala tomon huquqiy munosabatlarda teng huquqli bo'lishi belgilandi. 1871-yildagi Jinoyat kodeksiga kiritilgan tuzatish – namoyish o'tkazganlik uchun javobgarlik – "Mulkni

¹⁸ Новая история стран Европы и Америки. Под редакцией И. М. Кривогуза. 5-е издание. М.: Дрофа, 2005 стр. 549

saqlash va fitna haqidagi” Qonun (1875) bilan almashtirildi. Bu qonun tinch namoyishlarga ruxsat etdi. 10 yoshgacha bo’lgan bolalar mehnati ta’qiqlandi. Oldingi hukumat rahbari Gladston kabi Dizraeli tred-yunionlarning 54 soatlik ish haftasi haqidagi talablarni rad etdi. Biroq ish haftasini 57 soatlik bilan cheklash haqidagi bill qabul qilindi.¹⁹

Shu bilan bir vaqtda konservatorlar davlat apparatini kuchaytirishga ham erishdilar. 70-yillar boshida qabul qilingan qonunlar (mahalliy boshqaruv vazirligini tuzish va b.) mahalliy saylov organlari ziyoniga markaziy hokimiyatning imtiyozlarini oshirdi. Shu vaqtda, shuningdek, mamlakat hayotiga parlament rolining pasayishi hisobiga Ministrlar kabinetining vakolatlari kengaydi. Barcha masalalar bo’yicha qonunchilik tashabbusi hukumat qo’lida jamlandi. Ministrlar kabinetining ta’siri kuchayishining muhim shakllaridan biri ma’muriy apparatning unga bo’ysunishining kuchayishi bo’ldi.

Konservatorlarning tashqi va mustamlakachilik siyosati nafaqat burjuaziya, balki bu partiyaning avvallari asosiy tayanchi bo’lgan lendlordlarning ham yangi talablari doirasida belgilandi. Qishloq xo’jaligining inqirozi yer egalarining daromadini qisqartirdi. Yer egalari aristokratiyasi mustamlakachilik va tashqi savdo ishlarida yana ham ko’proq ishtirok eta boshlashdi.²⁰

1875-yilda Dizraeli Misr hadivi Ismoilidan o’z josuslari orqali Suvaysh kanalining 45 % aksiyasini sotib olishga muvaffaq bo’ldi. Shundan so’ng kam foizli aksiyalarga ega bo’lgan aksionerlar aksiya paketi boshqaruvini Angliyaga berishgan.²¹

1876-yilda qirolicha Viktoriya Hindiston qirolichasi deb e’lon qilindi. Dizraeli qirolicha Viktoriya kultini yaratishni xohlardi. Uni “demokratik torizm”ning asosiy ideologik elementlaridan biri bo’lishini istardi. Dizraeli o’z hukumatining tashqi siyosatdagi har bir qadamini Angliyaning Yevropa va butun dunyoda o’z mavqeini saqlab qolish yo’lidagi kurash deb hisoblardi. Shuning

¹⁹ Новая история стран Европы и Америки. Под редакцией И. М. Кривогуза. 5-е издание. М.: Дрофа, 2005 стр. 540

²⁰ Новая история стран Европы и Америки XVI-XIX века. Ч 2. Под ред. А. М. Родригеса, М. В. Пономарева. М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС. 2010. Ст. 495

²¹ . Эргашев Ш. Жахон тарихи. Т., Шарқ. 2016. 156-б

uchun ham u 1877-1878-yillardagi Rossiya-Turkiya urushida Turkiyani qo'llab-quvvatladi. Berlin kongressining tashabbuskorlaridan biri bo'ldi. Buning natijasida u Turkiyaga qarashli Kiprni egalladi. Burlarning Transvaal respublikasini bosib oldi, Afg'onistonga qarshi urushga kirdi, zuluslarga qarshi qirg'inbarot urush olib bordi. Bunday tashqi siyosat katta mablag'larni talab etgan; budjet katta difitsit bilan yakunlana boshladi va konservatorlar hukumati hatto daromad solig'ini oshirishgan edi.

1879-yil oxiri – 1880-yil boshlaridagi saylovlar kompaniyasi vaqtida liberallar Dizraelining tashqi siyosatdagi “qimmatga tushayotgan avantiyurasi”ga qarshi chiqishdi. Gladston katta hajmdagi davlat xarajatlarini kamaytirishga, saylovchilar huquqlarini kengaytirishga va irlandlar bilan “yarashuv”ga erishishga va'da berdi.

1880-yil saylovlar vaqtida liberallar shuningdek o'z partiyalarining tashkiliy mustahkamligi bilan ham ajralib turishdi. Dj. Chamberlen boshchiligidagi Birmingem liberallarining tashabbusi bilan faqatgina navbatdagi saylovlardan oldin tashkil etiladigan saylov-tashviqot mexanizmi doimiy faoliyat ko'rsatuvchi “Milliy liberallar federatsiyasi” (1877-yil) qilib qayta tashkil etildi. 1880-yilgi saylovlar liberallar g'alabasi bilan yakunlandi. Gladston yana hukumat tuzdi. Uning oldiga, eng avvalo, iland muammosini hal etish masalasi qo'yildi. Bu masala Angliya siyosiy hayotida markaziy o'rinni egallayotgan edi.²²

70-yillarda Irlandiyaning ahvoli yomonlashdi. 1879-yilda Maykl Devid boshchiligida “Yer-suv” ligasi tuzildi. Uning saflarida 250 mingdan ziyod odam bor edi. Parnell ingliz parlamentining irlandlar guruhi yetakchisi bo'lgan. U milliy-ozodlik kurashiga boshchilik qildi. U Britaniya imperiyasi tarkibida Irlandiya uchun gomrulni talab qildi. 1880-yilda hokimiyat tepasiga kelgan gladston 1881-yil kuzida Parnell bilan kelishuvga erishdi. Bu esa Irlandiyadagi mayda burjuaziyaning terrorchi guruhlarini faollashtirib yubordi. 1882-yilda Irlandiya

²² Новая история стран Европы и Америки XVI-XIX века. Ч 2. Под ред. А. М. Родригеса, М. В. Пономарева. М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС. 2010. С. 503

ishlari bo'yicha Angliya vaziri Kavendish va uning yordamchisi Berk o'ldirildi. Shundan so'ng repressiya avj oldirildi va irland masalasi bostirildi.

80-90-yillarda Angliyaning sanoat gegemonligini yo'qotishi davom etdi. Ishsizlik kuchaydi. 1885-yilda ko'plab shaharlarda, shu jumladan, Londonda ham ishsizlar ittifoqlari vujudga keldi.²³

Hukmron sinf o'zlarining siyosiy konsepsiyasini qayta ko'rib chiqdilar. Liberal partiyaning ko'zga ko'ringan arboblardan biri Djozef Chemberlen "davlatning ishchilar masalasi va savdoga tartibli aralashuvi" uchun ochiqcha chiqa boshladi. Konservativ partiya ichida ham yangi oqim vujudga keldi. Randolph Cherrill "adolatli savdo Ligasi"ni tuzdi. U "imperiya ittifoqi va imperiya proteksionizmi" foydasiga tashviqotlar olib bordi; boshqa tomondan, Cherrill konservatorlarni ijtimoiy muammolarni hal etishga yanada ko'proq e'tibor qaratishga chaqirdi.

Liberallar kichik yon berishlar yordamida ishchilarni o'z tomoniga og'dirishdi. Shu maqsadda Gladston hukumati 1854-yilda uchinchi saylov islohotini o'tkazdi(birinchisi 1832-yil; ikkinchisi 1867-yil edi). 1884-yilgi islohot qishloq joylarda yashayotgan ijarachi-ishchilar va mayda ijarachilarga saylov huquqini berdi.

Tashqi siyosatda Gladston hukumati amalda Dizraeli hukumatining siyosatini davom ettirdi. Madjube yaqinida ingliz qo'shinlari burlar tomonidan mag'lub etilgan (1881-yil), keyin Gladston bur respublikalari – Janubiy Afrika Respublikasi(Transvaal) va Oranjning mustaqilligini e'tirof etishga majbur bo'ldi. Biroq bu davlatlarning tashqi siyosati Angliya nazorati ostida qoladigan bo'ldi(1884-yilgi shartnoma). 1882-yilda Angliya Misrdagi o'z mulklari daxlsizligini bahona qilib misr xalqining milliy-ozodlik kurashini bostirish uchun qo'shinlarini kiritdi. Misr bosib olindi va amalda Britaniya imperiyasiga

²³ Всемирная история. Минск. "Литература" 1997. Т 18. С. 58

birlashtirildi. O'rta Osiyoda ingliz ekspansiyasi ruslar bilan to'qnashdi. Bu 1885-yilda qurolli mojaroga olib keldi.²⁴

1885-yilda Angliya Sharqiy Sudanda jiddiy mag'lubiyatga uchradi. Bu yerda ayni vaqtda mahdiylarning milliy-ozodlik harakati boshlangan edi. Sudanning bosh shahri – Xartum qo'zg'alonchilar tomonidan egallandi, ingliz-misir qo'shinlari mamlakatdan haydab chiqarildi.

1885-yil iyunda Gladston hukumati konservatorlar va irlandiyaliklar talabi bilan iste'fo berdi. Biroq konservatorlarning Solsberi hukumati faqat yarim yilgina hukumatni boshqardi. 1885-yilgi parlament saylovlarida liberallar parlamentda birqadar ko'p ovozga ega bo'lishdi va Gladston yana hukumatni shakllantirdi.

Gladstonning yangi hukumati yana parlamentdagi irland deputatlari madadiga erishdi. Irland muammosiga oid bir qancha muhim tadbirlar aynan Gladston nomi bilan bog'liq. Biroq bu masalaning parlamentda muhokama qilinishi Gladston hukumati taqdiri hal etdi va barcha eski liberal partiyaga kuchli zarba berdi. Liberallar orasida bo'linish yuz berdi: imperiyachilik kayfiyatidagi "liberal-yunionchilar"(ular Irlandiya bilan "uniyani" saqlab qolish tarafdori edilar) guruhini boshlig'i Dj. Chamberlen amalda shu vaqtdan rasman esa bir necha yil o'tgach konservatorlar partiyasi tomonga o'tib ketdi.

Liberal-yunionchilarning konservatorlar tomoniga o'tib ketishi ularni ancha kuchaytirdi. Konservativ partiya yangi hukumatni tuzdi va keyingi 20 yil davomida (1892-1895-yillardagi 3 yillik tanaffus bilan) siyosiy hokimiyatni o'z qo'llarida saqlab turdilar.

Ingliz monopoliyalari dastlab tabiiy boyliklarga ega mustamlakalar va qaram o'lkalarni ekspluatatsiya qilish yoki ekspansiya siyosati bilan bog'liq tarmoqlarda vujudga keldi.

1904-yilda 50 ta ingliz mustamlakachilik banklari va ularning 2279- ta bo'limlari hisobga olingan(shu vaqtda fransuz banklarining 136 ta, nemis

²⁴ Новая история стран Европы и Америки XVI-XIX века. Ч 2. Под ред. А. М. Родригеса, М. В. Пономарева. М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС. 2010. С. 517

banklarining esa 70 ta mustamlakalardagi bo'limlari bor edi). 1910-yilda ingliz bankining koloniyalardagi soni 5449 taga yetdi.²⁵

Katta foydaga ega bo'layotgan ingliz kapitali mustamlakalar tomon oqdi. Mustamlakalarda ular ingliz ma'muriyati tomonidan har tomonlama qo'llab-quvvatlanib, ularga mahalliy aholini qattiq ekspluatatsiya qilishda cheklanmagan imtiyozlarga berilgan. 1900-1905-yillarda ingliz xalq xo'jaligiga har yili o'rtacha 72 mln funt sterling, xorijga esa 64 mln funt sterling kapital yotqizilgan bo'lsa, 1906-1912-yillarda bu raqamlar mos ravishda 39 mln funt sterling va 152 mln funt sterlingga yetgan. 1913-yilda Britaniya imperiyasi mulkiga aylangan hududlarga joylashtirilgan ingliz kapitali 4 mlrd funt sterlingni tashkil etgan.

Kapital chiqarish va mustamlakalarni ekspluatatsiya qilishning kuchayishi bilan bir vaqtda Angliyaning o'z sanoatida turg'unlik holatlari yuzaga kela boshladi. Uning texnik darajasi sekin-asta pasaya boshladi, sanoat mahsulotlari eksporti katta qiyinchiliklarga uchradi. Shunday bo'lsa ham, chetga chiqarilgan kapitalning yillik foydasi 90-100 mln funt sterlingni tashkil etardi. Bu tashqi savdodan olinadigan foydadan 5 barobar ko'p edi. Sudxo'rlar toifasi tezda kengayib ketdi. London shahri jahon moliya markazi bo'lib qoldi.²⁶

1900-1903-yillardagi jahon iqtisodiy inqirozi va ingliz-bur urushi ingliz burjuaziyasi oldiga ichki siyosatda ham, tashqi siyosatda ham yangi jiddiy qiyinchiliklarni qo'ydi. Konservatorlar partiyasi boshqaruvidagi e'tiborli guruh va Djozef Chamberlen boshliq kabinetda proteksionizm siyosati davri kelganligi haqidagi qarorga kelindi. Chamberlen 1903-yilda hokimiyat tepasiga keldi va 1905-yilda hokimiyatdan ketdi. 1905-yil dekabrda uning o'rniga kelgan Balfur ham iste'fo berdi. Uning o'rniga Kempbell-Bannerman keldi. 1906-yil boshlarida o'tkazilgan parlament saylovlarida konservatorlar to'liq mag'lubiyatga uchradi.²⁷

Hokimiyat tepasiga kelgan liberallar hukumatining amalga oshirgan ishlaridan biri Taff ishi bo'yicha lordlar palatasining qarorini bekor qilganligi

²⁵ Новая история стран Европы и Америки XVI-XIX века. Ч 2. Под ред. А. М. Родригеса, М. В. Пономарева. М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС. 2010. С. 529

²⁶ Всемирная история. Минск. "Литература" 1997. Т 18. С. 65

²⁷ Новая история стран Европы и Америки XVI-XIX века. Ч 2. Под ред. А. М. Родригеса, М. В. Пономарева. М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС. 2010. С. 532

bo'ldi. Unga ko'ra ish tashlashlarda ko'rilgan zararning terd-yunionlardan olinishi bekor qilindi. Bir necha yillar ichida parlament qari ishchilar uchun davlat pensiyasi haqida, ishsizlikka qarshi davlat sug'urtasi haqida, mehnat birjalari va sanoatning qator tarmoqlarida minimum ish haqini o'rnatish uchun komissiya tuzish haqida qonunlar qabul qildi. Konchilar 8 soatlik ish kuniga ega bo'lishdi. Yoshga doir davlat pensiya 70 yosh etib belgilandi. 1913-1914-yillardagi davlat budjetidan armiya va flotga 77,1 mln funt sterling mablag' ajratildi. Bu harbiy xarajatlarning oshganligini ko'rsatadi.

1910-yil yanvarda yangi parlament saylovlari o'tkazildi. Unda liberallar g'alabaga erishishdi. Tadbirkorlarga tred-yunionlardan ish tashlash vaqtida keltirilgan zararni qoplash talabi ta'qiqlandi; ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalardan zarar ko'rganlar uchun tadbirkorlar hisobidan nafaqa, shuningdek, 70 yoshga yetgan keksalar uchun qarilik nafaqasi tayinlash joriy qilindi va shaxtyorlar uchun 8 soatlik ish kuni o'rnatildi.²⁸

1911-yilda lordlar palatasi huquqini bir qadar cheklovchi qonun qabul qilindi. Shu yili qabul qilingan qonunga ko'ra, kasallik va ishsizlikni sug'urta qilish tadbiri qilingan. 1910-yil bosh vazir etib tayinlangan Lloyd Jorj lordlar palatasining "veto" huquqini cheklovchi qonunning qabul qilinishiga erishdi. Endi lordlar palatasi jamoa palatasi tomonidan qabul qilingan qonunni faqat ikki marta rad etishi mumkin edi. Agar jamoalar palatasi shu qonunni uchinchi marta qabul qilsa, u o'z-o'zidan kuchga kirardi. Ayni paytda urushga tayyorlanayotgan hukumat qurollanishga katta mablag' ajrata boshladi.²⁹

Angliyaning ichki siyosati irland muammosining qiyinlashishi bilan bog'liq ravishda murakkablashdi. Ingliz hukmron doiralari 1903-yilda qabul qilingan pomeshek yerining dehqonlarga sotishi haqidagi qonun irland milliy harakatini kuchsizlantiradi deb ishongandilar. Shinfeyn partiyasi Irlandiyaning to'liq mustaqilligini talab qilishdi, parlamentdagi irland fraksiyasini va uning lideri Redmondni tanqid qilishdi. Liberallar 1912-yilda gomrul haqidagi qonunni yana

²⁸ Новая история стран Европы и Америки. Под редакцией И. М. Кривогуза. 5-е издание. М.: Дрофа, 2005 стр. 552

²⁹ Эргашев. Ш. Жаҳон тарихи. Т., Шарқ, 2016. 160-б.

parlamentga taqdim etishdi. Olsterlik konservatorlar lideri E. Karlson 1912-yil kuzda gomrulning “protestant “Irlandiya grafligida tarqalishiga to’sqinlik qildi. Karlson tuzgan qurolli otryadlar artilleriya, pulemyot, broneavtomobil bilan qurollangan taxminan 100 ming odamga yetdi. 1914-yil ingliz hukumati ular ustidan nazorat o’rnatish uchun Olsterga bir necha polk jo’natishga qaror qildi. Bunga ofitserlar qarshi chiqishdi. Ofitserlar “isyoni”ni oliy qo’mondon – general Vilson, French va boshqalar qo’llab-quvvatlashdi.³⁰

1914-yil yozida Irlandiyada Karlson hujumidan himoyalaniş uchun ko’ngilli armiya tuzila boshlandi. Butun Irlandiya qurollangan lagerga aylanib qoldi. 26-iyulda politsiya Dublinda irland millatchilariga qarshi qurol ishlatdi. Bir necha o’n odam halok bo’ldi va yaralandi. Boshlanib ketgan I jahon urushi bu urushni to’xtatishni talab etdi.

³⁰ Всемирная история. Минск. “Литература” 1997. Т 18. Ст. 71

I.2. Kashfiyotlar, Ilm-fan va texnika yutuqlari, mashhur olimlar

XIX-XX asrlar sanoat, fan-texnika sohasida muhim yangiliklar qilindi. Bu davrda ilmiy bilimlar jamiyat tafakkurini butunlay yangi sifat darajasiga ko'tarilish davri bo'ldi.

Yevropa va Shimoliy Amerikaning ko'plab mamlakatlarida XIX asr o'rtalarida industrilashtirish yoki sanoat burilishi nihoyasiga yetdi. Manfaatdorlikning madaniyatdagi belgilovchi o'rni fan va texnika taraqqiyotiga yangi turtki berdi. Bug' va elektrlashtirish, telefon va telegraf davri, astronomiya, geologiya, biologiya, kimyo sohalarida ajoyib kashfiyotlarga boy bo'lgan bu davr, shubxasiz insoniyat madaniyatini yangi bosqichga ko'tardi. XIX asr texnik taraqqiyotning ham jadal odimlash davri bo'ldi. Iqtisodiyotning gurkirab o'sishi erkin raqobatni, yangi texnikalarni yaratishni, ishlab chiqarishga joriy qilishni taqazo etdi.

XIX asrning birinchi yarmida texnik taraqqiyotning yangi davri – mashinalar yordamida boshqa mashinalarni yaratish davri boshlangan bo'lsa, XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib ushbu jarayon nihoyatda tezlashib ketdi. Bu jarayon tobora ko'proq metallni talab qilar, bu esa o'z navbatida metallurgiyada yangi ixtirolarga ehtiyojni oshirar edi. Ayniqsa po'lat ishlab chiqarishning hajmiga sanoatning keyingi taraqqiyoti bog'liq bo'lib qolganligi tufayli dastlabki ko'plab ixtirolar po'lat eritish texnologiyasini mukammallashtirishga qaratildi. Ingliz muhandisi G. Bessemer 1856-yilda po'latni eritish uchun aylanib turuvchi pech – konventerni ixtiro qildi. Bessemer tomonidan po'lat olishning yangi usuli kashf etilishi temir yo'l transporti, kemasozlik, shuningdek harbiy sanoatning rivojlanishiga xizmat qildi. Keyin prokat stani deb ataluvchi ixtiro amalga oshirildi va po'lat o'zining g'olibona yurishini boshladi (asr bekorga “po'lat asri” deb atalmagan).³¹

³¹ Эргашев. Ш. Жаҳон тарихи. Т., Шарқ. 2016. 48-б

P. A. Sorokinning hisoblariga qaraganda, insoniyat XIX asrda o'tgan asrlarga qaraganda ham ko'proq kashfiyotni amalga oshirdi. Bu davrda 8527 ta kashfiyot qilindi.

XIX asr temir yo'llar asri ham deyiladi. Bu bejiz emas. Birinchi temir yo'l Georg Stefenson tomonidan aynan Angliyada qurilgan. Biroq haqiqiy temir yo'llar jazavasi XIX asrning ikkinchi yarmida boshlandi. 1912-yilda dunyo bo'yicha temir yo'llarning umumiy uzunligi 1 080 000 km ni tashkil etgan. Sanoat to'ntarishi va boshlanayotgan industrilashtirish transport vositalariga bo'lgan talabni cheksiz oshirib yubordi. Yiroq mamlakatlardan xom ashyo tashib keltirish, korxonalarni yonilg'i bilan ta'minlash, tayyor mahsulotlarni ko'plab miqdorda chet el bozorlariga tashib ketish – bularning barchasi uchun transport zarur edi. O'sib borayotgan shaharlar aholisini oziq-ovqat bilan ta'minlash uchun ham transportdan foydalanish zarur edi. Xullas, taraqqiyotning qaysi jabhasini olmang, barchasida transport ehtiyoji kundan-kunga oshib borardi. Jadallashib borayotgan jahon savdosi ham transport vositalarining rivojlanishini talab qilardi. XIX asrning 80-yillarida London bilan Konstantinopol o'rtasida mashhur “Sharqiy ekspress” qatnay boshladi.

Dunyo bo'yicha birinchi yerosti temir yo'li 1863-yilda paydo bo'ldi va uni “Metropolitan” deb atay boshlashdi. XIX asr oxirlariga kelib bunday yerosti yo'lga ega bo'lgan shaharlar qatoriga London, Parij, Nyu-York, Budapesht kabi shaharlarni kiritish mumkin. Insoniyat hayoti tub burilishlarni boshidan kechira boshladi.

Texnik taraqqiyot harbiy texnikaga ham ko'pgina o'zgarishlarni kiritdi. Birinchi jahon urushi yilllarida “Motorlar urushi” boshlanib ketgandi.

Ma'limki, birinchi jahon urushi ma'lum darajada birinchi “motorlar urushi” ham edi. Frontni zarur mahsulotlar bilan ta'minlash uchun transportdan foydalanilgan, shuningdek, yangi jangovar vosita – tank va broneavtomobil yaratildi.³²

³² А. Луков. История культуры Европы XVII-XIX веков. М., ГИТР. 2011. С. 65

Tankni qo'llash g'oyalari urush boshlanmasidan oldin qator mamlakatlarda paydo bo'lgandi. Fransiya Levasser(1903-yil), V. D. Mendeleyev – buyuk ximikning o'g'li – Rossiya(1911-yil) va Avstriyada Burshtin(1912-yil) zanjirli tasmaga ega bronlangan har qanday yo'lda yurishga moslashgan mashina loyihalar bilan chiqishdi. Urush boshlanganidan keyin ingliz ixtirochilari Tritton va Uilson tankning yangi loyihasini taklif etishdi. 1916-yil 15-sentabrda ushbu loyiha asosida ishlab chiqarilgan tank Somma daryosi yonidagi jangda birinchi marta qo'llandi. Ingliz og'ir tanklari qariyb 30 tonna og'irlikka, 8 metr uzunlikka ega bo'lib, soatiga 6 km tezlikda harakat qilardi.³³

O'zining dengizdagi ustunligini saqlab qolishga urinayotgan Angliyada yangi turdagi linkor – bronenosetslar – “uxdnout”lar yaratildi.

Shunday ixtirolar ham borki, ular bevosita ingliz muhandislari yoki olimlari tomonidan yaratilmagan bo'lsa-da, ularning dastlab joriy etilish nuqtasi aynan Angliya hisoblanadi. Shunday ixtirolardan biri rus olimi P. N. Yablochkovning elektr yoyli chirog'i (“elektr shami”)ni misol qilib keltirish mumkin. Bu chiroqdan asosan, jamoat joylari – do'konlar, teatrlarda foydalanila boshlangan. Angliyada esa uni dastlab Temza daryosi qirg'oqlarini, London doklarini(kemalarning suvga botib turadigan qismini suvdan chiqarib, ko'zdan kechirish va ta'mirlash uchun xizmat qiladigan muhandislik inshooti)yoritishda foydalandilar.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida shiddat bilan rivojlanib borayotgan sanoat mexanika qonunlarini anglashni, ishlab chiqarishda foydalanilayotgan moddalar va materiallarning xususiyatlarini bilib olishni, tezlikni, bosimni o'lchash usullarini va shu kabilarni talab qilayotgan edi. ayni paytda texnik taraqqiyot darajasi ilmiy izlanishlar uchun asboblari yasash imkonini ham kengaytirdi. Inson ongi va zakovati tabiat sirlarini yashirib turgan pardani ochib yuborgandek bo'ldi. tabiatning ko'plab kuchlari endi inson izmiga tushdi, davr buyuk kashfiyotlar davri bo'lib, keyinchalik ilmiy-texnik inqilob deb atalgan jarayonni boshlab berdi.

³³ Всемирная история. Минск. “Литература” 1997. Т 18. С. 633

XIX asrda Yevropada qaror topgan industrial sivilizatsiyaning asosiy qadriyati ilmiy-texnika taraqqiyoti hisoblanadi. Bu bejiz emas.

Shunday kashfiyotlar qatorida elektromagnitizmning ochilishi ham turadi. Bu kashfiyotning muallifi mashhur ingliz olimi Maykl Faradey (1791-1867-yy) edi. Uning kashfiyoti elektromagnitizmni rivojlantirib yubordi va o'zidan keyingi kashfiyotlar uchun tamal toshi bo'lib xizmat qildi.

XIX asrning oxiri – XX asrning boshlari fizikada tub o'zgarishlar davri bo'ldi. Fizikadagi bosh radikal inqilobni ingliz fizigi J. K. Maksvellning (1831-1879-yy) elektromagnit jarayonlarning umumiy nazariyasi boshlab berdi. U 1855-yilda turli mamlakatlardagi fizik olimlarning elektromagnitizm, termodinamika va yorug'lik sohasidagi tajribalari hamda nazariy xulosalarini umumlashtiruvchi yorug'likning elektromagnit nazariyasini yaratdi. Uning nazariyasiga ko'ra, elektrni bo'shliqdan o'tkazuvchi ko'rinmas elektromagnit to'lqinlar mavjud.³⁴ Jeyms Maksvell 1871-yilda mashhur Kembridj universitetidagi Kavendish laboratoriyasining birinchi direktori bo'ldi. Aynan shu yerda 1897-yilda birinchi elektron kashf etilgan va atom yadrosining parchalanishi bo'yicha izlanishlar boshlab yuborilgan.³⁵

Ingliz fizik olimi hozirgi zamon fizikasining yirik namoyondasi Ernest Rezerford (1871-1937) radioaktivlik va atom tuzilishi to'g'risidagi ta'limot asoschilaridandir. U XX asr boshlarida mashhur alfa va beta nurlarini kashf etdi va ularning tabiatini aniqlab berdi. 1911 yilda atomning planetariy modulini yaratdi.

Ingliz astronomi Artur Stenli (1882-1944) nomi ham mashhurdir. Uning fundamental asarlari yulduzlarning ichki tuzilishi va evolyutsiyasi nazariyasi, nisbiylik nazariyasi masalalariga bag'ishlangan.

Ingliz olimi Jonston Jorj Stoney (1826-1911-yy) 1874-yilda elektr atom zaryadining dastlabki miqdoriy ta'rifini berdi. 1891-yilda bu zaryadni J. Stoney

³⁴ Эргашев. Ш. Жаҳон тарихи. Т., Шарқ. 2016. 57-б.

³⁵ И. В. Григорьев. Новая история стран Европы и Америки. М., МГУ. 2001. стр. 203

birinchi bo'lib “elektron” deb atadi.³⁶ 1870-yilda ingliz olimi U. Kruks siyraklashtirilgan havoli razryad nayida katod nurlarni kashf etdi. 1897-yilda ingliz fizigi J. Tomson katod nurlar vodorod atomlariga qaraganda, kichikroq massasi bilan zaryadli qismni o'zida aks ettirishini tajriba yo'li bilan isbotladi.³⁷

Kimyo fanining bu davrdagi rivojlanishiga, bir tomondan, ushbu fanning o'zida qilingan kashfiyotlar, ayniqsa, D. I. Mendeleyev yaratgan kimyoviy elementlarning davriy tizimi katta ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, fizika sohasida qilingan kashfiyotlar, ayniqsa, rentgen nurlari, radioaktivlik hodisalari, elektron va atom murakkab tuzilishining kashf etilishi katta ta'sir ko'rsatdi.

Yangi osmon jismlarini kuzatish jihozlarining paydo bo'lishi va ulardan foydalanish natijasida fizikaning yangi tarmog'i – astronomiya paydo bo'ldi. 1859-yilda kashf etilgan spektral analiz vositasida kuzatishlar olib borgan ingliz astronomi J. Loker 1868-yilda quyosh spektrida yangi elementni aniqladi. Bu element o'sha vaqtgacha yerda aniqlangan elementlardan farq qilardi. Ushbu elementni Loker *geliy(yunonchadan gelios - quyosh)* deb atadi. 1895-yilda ingliz fizigi va ximigi Uilyam Ramzay ushbu gazni laboratoriya sharoitida aniqlashga muvaffaq bo'ldi. Quyoshdan tashqari spektral analiz yulduzlarni o'rganishda ham qo'llanila boshlandi. Ushbu kuzatishlarni amalga oshirgan ingliz astronomi Uilyam Xeggins Yerda mavjud bo'lgan qator elementlarni aniqladi. Shuningdek, Xeggind gallaktikamizdagi tumanliklarni spektral o'rganishni boshlab berdi.³⁸ Spektral analiz usuli yulduzlarning ichki haroratini aniqlash va uning yo'nalishini belgilash imkonini yaratib berdi.

Yuqorida aytilganidek, Uilyam Ramzay J. Reley bilan hamkorlikda avval ma'lum bo'lmagan havoning ajralmas bir qismi – argonni(u 1895-yilda geliy deb ataldi), 1898-yilda esa (M. Travers bilan hamkorlikda) kripton, ksenon va neon

³⁶ Всемирная история. Минск. “Литература” 1997. Т 18. С. 645

³⁷ Всемирная история. Минск. “Литература” 1997. Т 18. С. 645

³⁸ Всумирная история. Минск. “Литература” 1997. С. 650

aniqlandi. Ushbu gazlar hisobiga Mendeleyev davriy tizimining yangi guruhi vujudga keltirildi.³⁹

Tabiiy fanlar doirasida ushbu davr evolutsion nazariyaning qaror topgan davri hisoblanadi. Charlz Darvinning “Odamning kelib chiqishi”(1871-yil) asari odamlar yashagan bir necha manzilgohlarni qazib o’rganish natijasida o’z isbotini topdi. Bu asar fanda to’ntarish yasadi. XIX asrning so’nggi choragini darvinizmning tarqalish va qaror topish davri deyish mumkin. Darvin ta’limoti biologiya sohasidagi tadqiqotlarning yo’nalishini tubdan o’zgartirib yubordi. Dunyo bo’ylab qilingan besh yillik sayohat davrida to’plangan ulkan botanik va zoologik materiallarni umumlashtirish asosida Ch. Darvin butun tirik tabiat Xudo tomonidan yaratilgan emas, balki uzoq rivojlanish jarayonining mahsulidir, degan xulosaga keldi.

90-yillarda golland olimi E. Dyubua bir necha yillik izlanishlardan so’ng Yava orolidan maymunsimon odam – pitekantrop qoldiqlarini topdi. Bu Ch. Darvin nazariyasining tan olinishiga turtki bo’ldi.⁴⁰

XIX asr ikkinchi yarmidan parazitologiya fani ham rivojlana boshladi. 1880-yilda fransuz shifokori A. Laveran Jazoirdagi bezgak kasaliga chalingan askarlar qonini tekshirib, yangi parazitni aniqladi. Lekin u bu parazitlarning butun rivojlanish jarayonini aniqlashga muvaffaq bo’la olmadi. Oradan 20 yillar o’tib ingliz shifokori R. Ross Hindistonda Laveran aniqlagan parazitni parrandalar qonida aniqladi. Tekshirishlar natijasida ushbu parazit chivinlar chaqishi natijasida paydo bo’lishi aniqlandi. Uning bu kashfiyoti bezgakni aniqlash va unga qarshi choralar ishlab chiqishga olib keldi.⁴¹

Ko’p tonnalik kemalarning kash fetalishi okean orqali bitta reys orqali Yevropadan Amerikaga 4000 tagacha odamlarni olib o’tishga imkon bergan.

1895-yilda irlandiyalik J. Danlop kauchukdan yasalgan, ichiga yuqori bosimli havo to’ldiriladigan shinalarni ixtiro qildi va bu avtomobillar qulayligini yanada oshirdi.

³⁹ А. Луков. История культуры Европы XVII-XIX веков. М., ГИТР. 2011. С. 65

⁴⁰ Всемирная история. Минск. “Литература” 1997. Т 18. С. 651

⁴¹ Всемирная история. Минск. “Литература” 1997. Т 18. С. 654

Transportning rivojlanishi o'z navbatida sifatli yo'llarga bo'lgan talabni oshirdi. Yevropaning boshqa davlatlariga qaraganda, Angliyada yo'llarning ahvoli bir qadar yaxshi edi. Angliya shosselarida soatiga 15 km tezlikda yurish imkoni mavjud edi. Bu ko'rsatkich Yevropadagi eng yaxshisi bo'lib, boshqa davlatlardagi ahvol og'irroq edi. Angliyada shosse yo'llar qurilishini tezlatgan narsalardan biri bug' katoklaridan foydalanish bo'ldi. Bug' mashinalaridan faqat sanoatda yoki yo'l qurilishidagina emas, balki daryolarni kemalar qatnaydigan kanallar bilan bir-biriga bog'lashda, portlarni qum bosishdan tozalashda, yangi portlar qurishda ham foydalanila boshlandi. shuningdek, ulardan qishloq xo'jaligida ham foydalanishgan. XIX asrning 40-yillarida Angliya dalalarida yengil qo'zg'aladigan mashinalar – lakomobillar paydo bo'ladi. 1870-yilda Angliyada bug' mashinasi tortadigan omochlar paydo bo'lib, keyin boshqa mamlakatlarga ham tarqaladi.

Aloqa sohasida ham ko'plab ixtirolar va amalga oshirildi. Masalan, 1850-yilda La-Mansh bo'g'ozi tubidan suv osti kabeli o'tkazilib, Kale va Luvrni bir-biri bilan bog'ladi. Keyin shunday kabellar Angliya bilan Irlandiya va Angliya bilan Belgiya o'rtasida ham o'tkazildi.⁴²

Yangilik va kashfiyotlar tufayli makon, zamon va materiya ustidan texnika hukmronligi o'sdi. Sivilizatsiyaning misli ko'rilmagan darajada o'sishi boshlandi – insoniyatning diniy hayotiga yangi hududlar va yangi qatlamlar qo'shildi. Shu bilan birgalikda vaqt va makonni yengishning yangi usullari kashf etildi – yuqori tezlikdagi yangi texnikalar, insonni sayyoraning istalgan mintaqasi bilan bog'lab berishi mumkin bo'lgan aloqa vositalari shular jumlasidandir.

⁴² Чекалов Д. А. Кондратов В. А. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. ФЕНИКС. 2005 стр. 314

I.3. Badiiy adabiyot namunalari va ularning namoyondalari

Barcha tavsif va ta'riflar hamda ijtimoiy ziddiyatlarga qaramasdan XIX asr jahon madaniyati taraqqiyotida burilish bosqichi bo'ldi. Buyuk fransuz burjua inqilobi natijasida hushyor tortish, XVIII asrning ma'naviy pirlaridan ko'ngil sovish jarayoni yuz berdi. Buning oqibatida jamiyatning hafsalasini pir qilgan Ma'rifatchilik asrining xom xayollari o'rniga romantizm paydo bo'ldi.

Aql-idrok davrining mafkurachilaridan farqli o'laroq romantiklar jamiyatni qayta qurishga intilmadilar. Boyib ketgan baqqollar bilan nokas mayda savdogarlar dunyosidan nafratlangan romantiklar unga o'zlarining samimiylik va ezgulik hukmron bo'lgan xayoliy dunyolarini qarama-qarshi qo'ydilar. O'tmishni poetiklashtirgan romantiklar borliqdan qadimgi afsonalar, xalq ertaklari dunyosiga sho'ng'iydilar. Ular uchun ritsarlik g'oyalari ustuvor bo'lgan o'rta asrlar yoki sivilizatsiyaning ta'siri yetib bormagan, aynimagandek bo'lib tuyulgan ibtidoiy xalqlarning hayoti ideal bo'lib ko'rinadi. Ko'pchilikning nigohi Sharqning ekzotik mamlakatlariga qaratildi – u yerda ta'magirlik, orsizlik va surbetlik dunyosidan qutulish mumkindek tuyulardi. Romantik qahramonga faqat real dunyodagina o'rin yo'q edi.⁴³

Romantiklar ishonardilarkki, insonning amallarini faqat fikrlovchi aql-idrok boshqarmaydi, hamma narsani ham mantiqq nuqtai nazaridan izohlash mumkin emas. Romantik san'atning ta'kidlashicha, inson qalb amriga, ezgu hislariga bo'ysunib yashaydi, haqiqiy san'atkorning vazifasi esa insonning murakkab va ziddiyatli ruhiy olamiga kirib borishdan iborat.

XIX asr birinchi yarmida tanqidiy realizm rivojlana boshladi. Adabiyotdagi realizmning yirik namoyondalari qatoriga inglizlardan Ch. Dikkins va U. M. Tekkereyni kiritish mumkin. Realizm klassiklari o'zlarini realistlar deb atamagan. Dikkins va Tekkerey ijodining gullab-yashnashi hamda XX asrda realizmning qayta jonlanishi bilan birga Angliya adabiyoti bu davrda o'zining

⁴³ Под общей редакцией Ю. Д. Колпинского и Н. В. Яворской. Всеобщая история искусств, Т 5. М.: Гос. Издательство «Искусство». 1964. С. 156

realistik an'analarini davom ettirdi.⁴⁴ Bu "viktorian davri" turg'unlik xususiyatining tugashi va hukmron burjuaziyaning gullab-yashnashi bilan tushuntiriladi. Chunki burjuaziya adabiyotdan o'yin-kulgu va "hordiq" talab qilayotgan edi. Shunga o'xshash asarlar Fransiyadan ko'plab keltirildi va ingliz taqlidchilar ijodida ham namoyon bo'ldi.

Bunday sharoitda XIX asrning so'nggi realistlari ijodi aks-sadosi eshitilmay qoldi. Ularning eng yaxshisi Tomas Gardi (1840-1928) edi. Uning asarlarida ingliz mustamlaka shaharlaridagi ikkiyuzlamachi-xotirjam hayotning keskin tanqidi o'z aksini topgan. "d'Erbervill urug'idan chiqqan Tess"(1891-y.) va "Ko'z ilg'amas Jud" (1895-y.) romanlari munofiqona axloq sharoitida iste'dodning halokati va yolg'izligini tasvirlaydi. "men his qilyapman, - deydi uning qahramonlaridan biri Juda, - bizning jamiyatimizda qandaydir bir xatolik bor". Qiynalgan Gardi "xato"si uning uchun mavhum bo'lib qoladi. Natijada yozuvchi tez-tez *fatalizmga* murojaat etadi, o'z romanlariga halokatga muqarrarlik va bitmas-tuganmas g'am-g'ussani olib kiradi.⁴⁵

Qayg'uli kayfiyat yana bir yirik realizm namoyandasi – Semuel Batler ijodida ham hukmronlik qiladi. Batler antiutopiya rivoji uchun ko'p asarlar yozdi. Keyinchalik bu yo'nalish ingliz satirik adabiyotida eng sevimli yo'nalishlardan bir bo'ldi. "Erevon" (1872) romanida mashinalarning odamlarni qullik holatiga solishi mumkin bo'lgan holati aks ettirilgan. Batlarning anchayin mashhur satirik romani "Insonning o'z qo'li bilan yaratgan har xil narsalar yo'li" (1903) bo'lib, "Viktoriyalar" oilasining axloqiy va diniy munofiqligiga bag'ishlangan.⁴⁶ Uning ikkita utopik xarakterdagi asarlari – "Yedgin" va "Yana Yedginda" asarlari 1872-va 1901-yillarda yaratilgan. Ushbu asarlarda Batler mamlakatni ajoyib fantastik shaklda tasvirlaydi.

Gardi ham, Batler ham ingliz adabiyotidagi dekadentlik jarayonlariga jiddiy qarshilik ko'rsata olmadi.

⁴⁴ Чекалов Д. А. Кондратов В. А. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. ФЕНИКС., 2005. С. 308

⁴⁵ Всемирная история. Минск. "Литература" 1997. С. 677

⁴⁶ Всемирная история. Минск. "Литература" 1997. С. 678

XIX asr 50-yillari oxirida dekadentlik deb atalgan yangi yo'nalish paydo bo'ldi. uning tarjimasi "tushkunlik" ma'nosini beradi. Rivojlanishning yangi yo'llarini izlash dekadentlikda "san'at san'at uchun" qoidasi bilan bog'liq edi. Dekadentlarning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri Oskar Uaylddir. Uning ko'rinishining o'ziyiq dekadentlikdan dalolat berib turadi. Erkinlik ruhida yozilgan uning aforizmlari "olomon"ga, realizmga nafratlanishni o'rgatdi, Qisqa vaqt ichida u xalqaro dekadentlik bayrog'i bo'la oldi. Shunday bo'lsa-da, ushbu tamoyillarning barchasi Uayld san'atida o'zini fosh qilishga olib keldi. "Dorian Grey" (1891-yil) romanining qahramoni, klassik "dekadent" jamiyatda hech qanday obrazga ega bo'lmagan qariya sifatida vafot etadi. Uayldning o'zi ham qahramoni kabi jon berdi. "Salomeya" she'riy drammasiga o'xshash Uayldning mistik asari vaqt o'tib o'z qimmatini yo'qotdi; aksincha o'z ahamiyatini saqlab qoldi. Chunki uning bu asarida ijodkorning nozik va kutilmagan pokiza qalbi aks ettirilgan. Shunday asarlar sirasiga uning ertaklari va o'yin-kulgusi, zakovatli komediyalari("Jiddiy bo'lish qanchalik muhim", "Ideal erkak")ni kiritish mumkin. Uayldning poetik merosida ajralib turadigan asar "Reding qamoqxonasining balladasi" – yozuvchining o'ziga xos istig'fori edi.⁴⁷

"Sariq kitob" (1894-yil) va "Savoy" (1896-yil) kabi jurnallar nashr ettirgan Oskar Uayld ijodiyoti konservativ viktorian jamiyati namoyondalarini olqishladi. Ushbu jurnallar atrofida yig'ilgan yozuvchi va rassomlarning isyoni reallikdan yiroq, dunyoning simvolik tasvirini izlash bilan ifodalanadi.

Dekadentlarning shov-shuvsiz muvaffaqiyatlari qisqa muddatli bo'ldi. XIX asr oxiriga kelib Britaniya imperiyasida ingliz adabiyotining keng tarqalishi bilan bog'liqlikda u o'zida imperiya doiralarining faolligini aks ettirdi. Reaksion ta'sir, qisman realistik san'atga ham ta'sir ko'rsatdi. Shunday realistlardan biri yozuvchi va shoir Rediard Kipling edi. Kipling adabiyotda XIX asr 80-yillari oxirida paydo bo'ldi va o'zi ko'p yillar yashagan Hindiston haqidagi hikoyalari bilan tezda mashhur bo'lib ketdi. Yosh jurnalistning dona-dona va qat'iy so'zlari dekadentlarning nafis uslubidan ibratomuz farq qilardi. u jargon so'zlarni, oddiy

⁴⁷ Чекалов Д. А. Кондратов В. А. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. ФЕНИКС. 2005 стр. 308

xalq iboralarini va yorqin tafsilotlarni muomalaga kiritishdan cho'chimadi. Dekadentlar darhol uni beadablikda aybladilar. Faqat O. Uayld: Kipling – katta iste'dod" deya tan oldi. Kipling adabiyotdagi mavhum ramzlarga mardlik va jasoratni kuylovchi "harakat adabiyotini" qarshi qo'yadi. Imperiya yaratilayotgan bir paytda shinam mehmonxonada yoki "fil suyagidan yasalgan minorada" kutib o'tirish yaramaydi. Britaniya o'z o'g'lonlaridan qahramonliklarni: dunyoning narigi chekkasiga borish, u yerdagi mahalliy aholini bo'ysundirish, shifoxonalar, maktablar, yo'llar qurilishini kutadi. "Madaniyatdan orqada qolgan" xalqlarga faqat oq tanlilar yordam berishi mumkinligiga Kipling chin dildan ishonadi. Yozuvchining hayot falsafasi uning "Oq tanlilar yuki" deb ma'nodor nomlangan she'rida o'z ifodasini topadi.⁴⁸ Kipling o'zining bu she'ri, hayotiy falsafasi va inglizlarning sivilizatsiyachilik missiyasiga qat'iy ishonchi bilan Charlz Dilk, Jon Sili va Sesil Rods singari imperiya maddohlari qatoridan joy oladi.

Uning ko'plab asarlari biron maqsadga – imperiya tartiblarini "sog'lomlashtirish"ga yo'naltirilgan edi. O'zining ayrim roman va povestlarida Kipling irqchilik, imperiyachilik g'oyasining ochiqcha targ'ibotchisi sifatida maydonga chiqdi. U bunda boshqa Yevropa mamlakatlari va Qo'shma Shtatlar shovinistik adabiyoti uchun obraz bo'lib xizmat qildi. U kichik martabali mustamlakachi ma'murlarni, askarlarni("Uch askar"), harbiy muxbirlarni("Yog'duning so'nishi") madh etdi va qahramonlarga aylantirdi. "Oq tanli kishining vazifasini" tasdiqlagan fanatizmga "kelgan" noodatiy kuchdan Britaniya imperiyasining dushmanlarini jazolashni ham unutmadi("Sobiq inson"). Ikki tomlik "Jungli kitobi"(1894-1895-yy) badiiy ijodning yorqin asari hisoblanadi. Ushbu kitoblarning alohida qismlari majoziy shaklda qabul qilinsa-da, ularning haqiqiy ma'nosi o'ziga xos dunyo tabiatining niqobida hayotni gavdalantiruvchi rango-rang birliklar tashkil etadi. Kipling Angliyada shoir sifatida ham anchayin tanildi. Uning she'rlari g'ayrati bilan, oddiy va sho'x usuldaligi bilan, o'ziga xos folklor an'alaridagi novatorlik shakllari bilan ajralib turadi. Biroq Kipling she'riyatida ham imperiyachilik mafkurasi ko'zga tashlanadi.

⁴⁸ Эргашев. Ш. Жаҳон тарихи. Т., Шарқ. 2015. 72-б

Ularning ba'zilar inqilobiy tashviqot shiorlari sifatidakeng tarqalgan("Oq tanli kishining burch-anduhi", "Kazarmadagi balladalar").⁴⁹

Yozuvchining sevimli qahramoni unchalik ma'lumotli bo'lmagan, brinchi da'vatdayoq yo'lga chiqishga tayyor turgan yoqimtoy xizmatkor Tommi Atkins bo'ladi. Quyi irqni sivilizatsiyaga jalb qilishga mahkum bo'lgan Tommini burch hissi jasurlik ajratib turadi.

Yillar o'tdi va Kipling berilib kuylagan, "hech qachon quyoshi botmaydigan" Imperiya tarixning mulkiga aylandi. Biroq insoniyat "temir Redyardning" kitoblarini esdan chiqarmadi. XIX asrda yaratilgan, bir-biriga o'xshamagan bu kitoblar o'z davrining badiiy kashfiyoti, keyingi asrda yaratilajak buyuk asarlarning darakchisi edi.

Boshqa jihatdan, Kiplingga qaraganda, tabiat mavzusiga Jozef Konrad (Kojenevskiy) ham ko'proq murojaat etgan. Konrad uchun bu hukumatning mayda tazyiqlaridan va tor manfaatlardan ozod nuqta edi. Zo'r muhabbat va ajoyib san'at bilan Konrad o'z kitoblarida okeanni tasvirlaydi; ko'plab povest va hikoyalari orqali u okeanning gigant obrazini yaratdi. Unda insonlar tabiatining o'ziga xos xususiyatlari aks ettirildi("Tayfun" 1902-yil). Konrad ko'ngil daftariga qator novatorlik usullarini qo'lladi.⁵⁰

Turmushni aks ettiruvchi yozuvchilarga qarshi va o'z syujetlarini ekzotik materiallarga qurgan yozuvchi Robert Lui Stivenzon edi. Uning ijodi butunlay yorqinlikni aks ettirishni maqsad qilib olganligi bilan ajralib turadi. XIX asr oxiridagi adabiyotda u qaytis sarguzasht romanlar muallifi sifatida maydonga chiqdi. Shunday romanlaridan biri – "Xazinalar oroli"(1883-yil).

Realistlarning keyingi avlodlariga dunyo tanigan quyidagi uchta yozuvchini kiritish mumkin: Jon Golsuorsi, Jorj Bernard Shou va Gerbert Uils. Ularning ijodida realizm yangi darajaga ko'tarildi. Shou va Uils o'zlarida sotsialistik mafkuraning kuchli ta'sirini sinab ko'rishdi.

⁴⁹ Всемирная история. Минск. "Литература" 1997. С.679

⁵⁰ Всеобщая история искусств. Т 5. Под общей редакцией Ю. Д. Колпинского и Н. В. Яворской. М., Гос. Изд. «Искусство» 1964. стр. 284

Jon Golsuorsi 1867-1933-yillarda yashab ijod qilgan yirik ingliz romanchisi va dramaturgi hisoblanadi. U hatto xizmatlari evaziga 1932-yilda Nobel mukofotiga ham sazovor bo'lgan. boy oilada dunyoga kelgan Golsuorsi Oksford universitetida o'qiydi. Uning birinchi nashr etilgan asari "Joselin" (1898-yil) unga shuhrat keltirdi. Uning bellitristik(o'qilishi oson yengil-yelpi asar) ijodi Forsaytlar oilasining hayoti bilan bog'liq. Uning ushbu oila bilan munosabatlari yaxshi bo'lmagan. U Soams Forsaytning yoddan chiqmas tabiatining ko'plab jihatlarini qalamga oldi. Soams hatto o'z xotiniga mulk sifatida qaraydi.

Jon Golsuorsi Tomas Man va boshqa yozuvchilar bilan bir qatorda yangi davrning boshlanishi uchun "sinflarning tugatilishi" epopeyasini yaratishda qatnashdi. Uning ko'p tomlik "Forsayt haqida saglar"(ushbu to'plamning birinchi romani "Mulkdor" 1906-yilda chiqqan) kitobida hech qachon mustahkam an'anagga ega bo'lmagan burjua oilasining yemirilishi aks ettirilgan. Boshqa realistlar singari Golsuorsi bu timsoliy kartinasida butun jamiyat tartibining chirishini aks ettirdi. Qator realistik dramalarida("Kumush quticha", "Urush") Golsuorsi o'z davrining o'tkir ijtimoiy muammolarini haqqoniy tasvirleydi.⁵¹

Bernard Shou yangi shakldagi Yevropa hajviya dramalarining yaratuvchilaridan hisoblanadi. "Yoqimsiz" deb atagan o'zining dastlabki pyesalaridanoq u san'atga munosabatning novatorlik tamoyillarini qo'lladi – o'z qahramonlarining ichki dunyosida oshkora siyosiy jarayonlarni, fe'l-atvorlariga muallifning to'g'ridan to'g'ri mulohazasin aks ettirdi. "Sof san'atning xursandchiligisiz men asarimning biron satrini ham yoza olmayman", - deya o'z nuqtai-nazarini bildirgandi. Shou Ibsen va Chexovning malakalarini e'tiborga olib, ularga qaraganda "sof" g'oyalar va ularning hayotiyliigi orasidagi o'ziga xos o'zaro almashinuvni o'rnatdi.

Shou "Shayton shogirdi", "Sezar va Kleopatra", "Androkl va sher", "Qalblar parchalanadigan uy" kabi asarlar muallifidir.⁵²

⁵¹ Всумирная история. Минск. "Литература" 1997. С. 679

⁵² Всумирная история. Минск. "Литература" 1997. С. 680

Jamiyat hayotini chuqur o'rganish, undagi illatlarni fosh etish, hayotni haqqoniy tarzda tasvirlashga intilish g'arbda XIX asrning 30-yillariga kelib adabiyot va san'at sohalarida "Tanqidiy realizm" oqimini yuzaga keltirdi.

Ingliz dramaturgi Bernard Shou (1856-1950) o'z asarlarida ekspluatatsiyani, meshchanlik axloqini, munofiqlik, soxtalikni qoralagan. "Qariyalar uyida", "Uorren xonimning kasbi", "Qurol va inson", "Kandid", "Yashasak ko'rarmiz", "Mayor Barbara" kabi asarlarida jamiyatdagi qusurlarni tanqid qilish bilan birga ijtimoiy taraqqiyotga, adolatga xizmat qiluvchi kuchlarni zo'ravonlikka qarshi qo'yish g'oyalari ilgari suriladi.

Angliyada tanqidiy realizmning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri Bernard Shou edi. Nafaqat etikaga oid, balki ijtimoiy va siyosiy mavzudagi asarlar ham yozgan yozuvchi-kurashchi, mitingchi-orator, ijtimoiy va siyosiy traktatlar muallifi, iste'dodli jurnalist, musiqaviy va tanqidiy realist Shou sahnaga o'z davrining asosiy ijtimoiy muammolarini olib chiqdi.

Gerbert Uells dramaturgiyada Shouga o'xshadi. U romanlariga ajoyib o'zgarishlarni olib kirdi. Bu janr faol g'oyalar tarafdorlarining talabi bilan qayta qurildi. Uning fantastika janriga oyoq qo'ygani bejiz emas. O'zidan avvalgi fanrasrika yozuvchilaridan(Jyul Vern) farqli o'laroq, Uells havasni keltiradigan tashviqotchi va texnik yaratiqlar illyustrator(bezakdori) bo'la olmadi. Uning asosiy xizmati fan yoki ishlab chiqarishdagi u yoki bu o'zgarishning psixologik, ijtimoiy, siyosiy natijasini yashirishni maqsad qilganligi hisoblanadi. Uells nafaqat kelajakdagi texnik yangiliklarni ko'ra oldi, balki yangi ijtimoiy guruhlarini oldindan chiza bildi(masalan, "Ozod etilgan dunyo" 1914-yil, unda atom yadrosining parchalanishi haqida aytilgan). Shuningdek, "Ko'rinmas odam"(1897-yil) romanida yozuvchi muhim muammolardan biri bo'lgan xususiy kashfiyot uchun olimlarning javobgarligini ko'rsatadi. Boshqa asarlarida – "Vaqt mashinasi"(1895-yil), "Uxlaganlar qachon uyg'onadi"(1899-yil) – mubolag'a va fantaziyalardan foydalangan Uells kapitalistik sivilizatsiyaning qo'rqinchli natijalarini tasvirlaydi. Ushbu davrda u bir qator satirik hayotiy romanlar ham

yozdi. Ulardan mashhurlari “Tono-Bengey”(1909-yil) va “Mister Britling kuni tonggacha sharob ichadi”(1916-yil) hisoblanadi.

Ingliz romantik ijodiyotida shoir Jon Kitsning chuqur dilgirlikka asos soldi, hayot va go’zallikning bir birini to’ldiruvchi ekanligini hayotiy misollar vositasida isbotlab berdi.

Lord Bayron yagona qahramonni, o’zini ham, boshqalarni ham o’linga olib borgan “fohisha farishta”ni tasvirladi.⁵³

1848-yildayoq vujudga kelgan preraphaelchilar harakati eson-omon va mag’rur rivojlanayotgan viktorian davri akademik san’atinining tashqi ko’rinishini o’zgartira olmadi. Shu bilan bir vaqtda preraphaelchilar namoyondalari, xususan Rossetti doirasiga kirganlar ingliz adabiyoti va tasviriy san’atida dekadentlik-simvolizm davri rivojlanishi uchun zamin hozirlashdi. Rossetti, Verlen va Mallormi ta’siri ostida XIX asr oxirida Angliyada simvolizm san’ati gullab-yashnadi.

1837-yili gannoverliklar sulolasining so’nggi erkak vakili vafot etdi va taxtga o’n to’qqiz yoshli Viktoriya (1819-1901-yy) o’tirdi. O’shanda bu tortinchoqday bo’lib ko’ringan qizcha 64 yil taxtda o’tiradi deb hech kim o’ylamagan edi. Tarixga “Viktoriya Angliyasi”, “Viktoriya davri”, “viktoriancha axloq” va hatto “viktoriancha arxitektura” tushunchalari kirib, faqat Britaniyada emas, Kanadada, Avstraliyada, Hindistonda va hatto AQShda ham keng qo’llaniladi. Shu kamgap, to’ladan kelgan, uncha chiroyli bo’lmagan ayol Angliya o’z qudratining eng cho’qqisiga chiqqanda uning ramziga aylanadi, deb kim ham o’ylabdi.

Tajribasiz qizcha bo’lib taxtga kelgan Viktoriya unga homiylik qilgan lord Melborn rahbarligida parlament an’analarini va konstitutsiya odatlarini juda tez o’zlashtirib oldi. Asta-sekin uning xarakteridagi qat’iylilik, hukmini o’tkaza olish va shaddodlik singari sifatlar namoyon bo’la boshlaydi.

Jeyms Metyu Barri (1860-1937-yy) shotlandiyalik dramaturg va roman yozuvchi bo’lgan. Uni dunyoga tanitgan asar “Piter Pen” hisoblanadi. Ushbu asar

⁵³ Е.П. Борзова, А.В. Никонов - История мировой культуры в художественных памятниках. 2003. С. 499

ulg'ayishni xohlamagan bola haqida. Barri Edinburg universitetida o'qiydi. U bu yerda jurnalist bo'lib yetishadi va Nottingem gazetasida ishlay boshlaydi. Uning ilk asarlaridan "Qadimgi Lixtning idilliyasi"(tabiat quchog'idagi tinch va osoyishta hayotni tasvirlovchi kichik she'riy asar)(1889-y.), va "Baxromdagi deraza" (1889-y)larni keltirib o'tish mumkin. Uning "Kichkina xizmatchi"(1891-yil) asari romanchilik bobidagi ilk qadamlaridan hisoblanadi. Barri asr oxirida "Ta'sirchan Tommi" (1896-y.) va "Tommi va Grizel) kabi asarlar yozdi. Shundan keyin uning teatrga qiziqishi ortib ketdi. Uning dastlabki yozgan pyesalari muvaffaqiyatsiz chiqqan bo'lsa-da, uning 1897-yilda sahnalashtirilgan "Kichkina xizmatchi" asari unga bir qadar shuhrat keltirdi.⁵⁴ Uning butun hayoti davomida onasi kuchli ta'sir ko'rsatdi.

Ingliz adabiyotidagi detektiv janrining eng mashhur namoyondasi, Sherlok Xolms obrazini yaratgan muallif Artur Konan Doyl 1859-1930-yillarda yashagan. U Edinburgdagi Qirol universitetida tahsil oldi va 1881-yilda tibbiyot doktori darajasini oldi. Artur Konan Doyl 1887-yilda Sherlok Xolms haqidagi dastlabki "To'q qizil rangdagi etyud" asarini yozdi. Doyl tibbiyot bilan shug'ullanishni bas qilib, badiiy ijodga sho'ng'idi. Uning detektiv janrida yozilgan "To'rt belgi" (1890-y), "Sherlok Xolmsning memuari" (1894-yil), "Baskervilning iti" asarlari mashhur bo'ldi. Ushbu asarlarda Sherlok Xolmsning umumiy obrazlari berilgan bo'lib, unda Xolms murakkab va chigal vaziyatlarni xususiy xuloasalar chiqarish yo'li bilan yechadi. Sherlok Xolmsning ziyrak, ishonchli odami doktor Vatson obrazi ham uning yaqin do'sti sifatida unga hamrohlik qiladi. Artur Konan Doyl tarixiy mavzularda ham asarlar yozgan bo'lib ular orasida eng mashhurlaridan "Mika Kleyrk" (1889-yil) va "Oq kompaniya" (1891-yil) asarlarini keltirish mumkin. Uning tarixiy mavzuda yozilgan "Vaterloo tarixi" asari ser Genri Irvingning eng muvaffaqiyatli pyesalaridan biri hisoblanadi. Doyl Angliyaning Burlar urushidagi harakatlariga bag'ishlab yozgan ikkita siyosiy pamfleti ham uni

⁵⁴ Всеобщая история искусств. Т 5. Под общей редакцией Ю. Д. Колпинского и Н. В. Яворской. М., Гос. Изд. «Искусство» 1964. Стр. 296

ingliz yozuvchilar olamida yuksaklikka olib chiqdi. Artur Konan Doyl 1902-yilda ritsarlik unvoni bilan taqdirlandi.⁵⁵

Arnold Bennet 1867-1931-yillarda yashagan ingliz romanchisi va dramaturgi. U XX asr boshlaridagi ingliz romanchiligining mashhur vakili hisoblanadi. Uni mashhur qilgan asarlardan biri “Besh shaharcha” Angliya shimolidagi sanoat rayoni haqidagi asardir. Bennetning dastlabki faoliyati dabdabali ayollar jurnali va adabiy maqolalarni chop etishdan boshlanadi. Asr chegarasiga borib Bennet to’liqligicha romanchilikka o’tib ketdi. Zolyaning naturalizmi ta’siri ostida u do’kon egalari va kulollarining qayg’uli hayotini yorqin bo’yoqlarda tasvirladi. Uning qahramonlarga bo’lgan munosabatini simpatiya deb atash mumkin. Bennetning eng yaxshi asarlaridan “Besh shaharcha” tarkibiga kirgan “Ushbu Besh shaharchalik Anna” she’ri (1902-yil), “Kleynxenger” trilogiyasi (1910-yil), “Xilda Lesuey” (1911-yil) va “Ushbu ikkilik” (1916-yil)ni keltirish mumkin. Shuningdek, Bennet pyesalar yozish sohasida ham qator muvaffaqiyatlarga erishdi.

⁵⁵ Чекалов Д. А. Кондратов В. А. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. ФЕНИКС. 2005 стр. 312

II.1. Tasviriy san'at namunalari, uning turlari va janrlari, eng mashhur namoyondalari

XIX asr san'atining xususiyatli jihatlari yagona estetik dominantalar – turlar, ko'rinish va janrlarning yo'qolishi bo'ldi. XX asr boshlarida esa badiiy madaniyat turi bo'lgan “desentralizm”ning ajralib chiqishi ro'y berdi: shu vaqtdan boshlab san'at asinxron va ko'p usulli bo'lib rivojlana boshladi.

XIX asrda badiiy madaniyat institutlarining klassik modeli tarkib topdi. San'at dunyosi qatoriga professional ijod bilan birga romantizmdan boshlangan folklor, shuningdek amaliy san'at va badiiy ishlab chiqarish kirdi. Badiiy madaniyat ittifoqlari va fabrika ishlab chiqarishi insonning buyum dunyosini standartlashtirishga, uy-ro'zg'or buyumlarining estetik qadrining tushishiga olib keldi.

Ideal va reallik o'rtasidagi chuqur bo'linish, insonning ruhiyati va ijtimoiy faollik imkoniyatlari, industrial sivilizatsiya davri yangi ruhiy marralarni yaratishga yo'naltirilgan kuchli ijodiy quvvatni yuzaga keltirdi. San'atning polisentrizmi XIX asrda dunyoqarash va badiiy ijodning turli shakllarini olib keldi: realizm, romantizm, impressionizm va simvolizm.

Realistik dunyoqarash industrial madaniyatning eng ko'zga ko'rinarli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. U tahliliy iste'dod, tanqidiy fikrlar, sog'lom fikrga maqsad bilan chambarchas bog'liqlikda edi. san'atning realistik yo'nalishi antik madaniyatni o'zida aks ettirdi. Bu haqda qoyaga ishlangan rasmlar guvohlik beradi. Asosida mifologik voqeiliklar yotgan qadimgi adabiy asarlar tabiat va inson haqidagi tasvirlarning obekti bo'lib xizmat qilgan. O'rta asrlar davrida diniy aqidalar doirasidagi asarlar, afsonaviy qahramonlik ritsarlik romanlari bilan birgalikda turmush hayoti aks etgan novellalar, turli tabaqalarni, tarixiy obektlarni to'liq tasvirlagan dramalar ham yaratildi. Renessans davrida insonni chiroyli qilib tasvirlagan “ideallashtirilgan realizm” ustuvor bo'ldi.⁵⁶

Realizmning tarqalishi, uning an'alarining mustahkamlanishi ilmiy g'oyalarning muvaffaqiyatiga imkon bergan. “Realizm” atamasi dastlab XIX asr

⁵⁶ Владимир Малинкович. Очерки истории европейской культуры нового времени. С. 105

o'rtalarida faqat badiiy madaniyatdagi aniq mavjudlikka nisbatan qo'llanilgan. Adabiy tanqidchi J. Shanfleri romantizm va simvolizmga qarshi turgan estetikani ifodalash uchun tushuncha sifatida qo'llagan. Realizm namoyondalari obektivlikka maksimal yaqinlikni, voqeilikni aniq-tarixiy aks ettirishni, inson ahloqining fizik asoslarini tahlil qilishni maqsad qilganlar. Biroq dalillar hayotning negizi empirik kuzatish kabi oddiy emasligini isbotladi. Naturalizmdan farqli o'laroq, reallikdan nusxa olishda o'zini tiyishga uringan realistlar borliqning mavjud tomonlarini aks ettirganlar. Ular aniq-ravshan, qattiq ishonchli tilda aytishdi. Alohida relefli, kristallangan obrazlar ko'p qirrali, dunyoning mujmal modeliga qarshi qo'yilgan.

Ushbu davrning ajoyib namoyondalaridan biri Obri Berdsli(1872-1898-yillar) bo'lib, u judayam qisqa umr ko'rishiga qaramasdan, Yevropaning turli mamlakatlaridagi o'z zamondoshlari ijodiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Butunlay postrafaelchilar ruhida yaratilgan asarlari "Qirol Artur haqidagi hikoya", "Gajakning o'g'irlanishi"(1896-yil) hisoblanadi.⁵⁷

1885-1886-yillarda "Yangi ingliz badiiy jamoasi" bujudga keldi. U postrafaelchilarning eklektizmiga va rasmiy akademik rasmlarga qarshi turdi. Ushbu harakat namoyondalari Uilyam Orpen, Uolter Sikkert, Uilson Stir, Ogastes Jon, Ambuaz Mak-Evoy, Frenk Brengvin va boshqalar XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Angliya madaniyatining yirik vakillari bo'lishgan. "Yangi badiiy jamoa" vakillari insonni o'rab turgan hayot va undagi narsa-buuyumlarni tasvirlashga harakat qilishdi. Yangi yo'nalish rassomlari hozirgi ahvolni idrok etishga imkon beruvchi tasviriy vositalarni izlab topishni maqsad qilishgan. Fransuz rassomlarining ta'siri Sikkert, Stir, Gilmen, Smit va boshqa rassomlar ijodiga ta'sir ko'rsatdi. Shunday bo'lsa-da, ushbu tasviriy san'at ijodkorlari o'z ijodida avvalgi ingliz san'atining an'analari va milliy o'ziga xoslikni izlashga harakat qilishgan.⁵⁸

O'zining dastlabki qadamlarini o'z davrining mashhur portretchi rassomi bo'lgan otasining kuzatuv ostida tashlagan Uilson Stir (1860-1942-yy) 1882-yilda

⁵⁷ Владимир Малинкович. Очерки истории европейской культуры нового времени. С. 103

⁵⁸ Е.П. Борзова, А.В. Никонов - История мировой культуры в художественных памятниках. 2003. С. 317

Parijga jo'nab ketadi va bu yerda dastlab Jyulyen Akademiyasida, keyin Bugro va Kabaneldagi Nafis san'at maktabida o'qiydi. Bu yillar davomida u fransuz impressionistlari ta'siriga tushib qoladi. Angliyaga qaytgach Stir "Yangi badiiy jamoa" tashkil etilishining eng faol ishtirokchilaridan biri bo'ldi. Uning "Richmonddagi qal'a" (1903-yil; London, Teyt galleriyasi) asari mahshurdir. Konstebl an'alarini davom ettirgan Stir unga o'zining badiiy vositalarini qo'shib boyitdi. Uning ko'plab qiziqarli portretlaridan biri "Missis Reyn Portreti" (1922-yil; London, Teyt galleriyasi) usta-rasomning ancha keyinroq chizgan rasmlaridan biri hisoblanadi.⁵⁹

XIX asr 80 yillarga kelib impressionalizm yo'nalish sifatida o'zining barcha tasvirlash imkoniyatlarini namoyon qilib bo'ldi va endilikda uning o'rniga impressionistlarning tasodifiy va lahzalik tasvirlariga javoban eksimpressionalizm paydo bo'ldi.

Yangi XX asr boshlaridan e'tiboran san'at ijodkorlari orasida turli xil yangi yo'nalishlar paydo bo'ldiki, bular o'z ijodiga o'ziga xos mazmun, qarashlar va g'oyalarni ifodalay boshladi. Shu tariqa, asr boshlarida "modernizm" ya'ni "yangi sanat", "badiiy avangard" nomlari bilan atalgan badiiy yo'nalishlar yuzaga kela bordi. Amerikalik mutaxassis Orteganing fikricha, yangi san'at ijodkorlari bu san'atning noan'anaviyligi, noommaviyligini ko'proq ko'rsatishga intildilar. Bunda ifodalashning yangi shakllari, uslublarini izlash avangard ustalari ijodining ongli maqsadi bo'lib qoldi. Ular aslida erkin ijod tarafdori edilar. Darvoqei, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida yangi badiiy uslub – arxitektura, dizayn, amaliy san'at bilan bog'liq holda modern (yangilik manosida) oqimi vujudga keldi. Avangardning dastlabki oqimi fovizm nomini oldi. U 1905 yilda Parijdagi badiiy ko'rgazmada ilk bor tilga olindi va namoyish etildi. Fovizmning asosiy xarakterli xususiyati, bular real narsalar, predmetlarning rangidan, tusidan mutlaqo qat'i nazar yorqin rang bo'yoqlarning birikuvidan foydalanish va ayni chog'da real obyektlar nisbati va shakllarining keskin buzilishidir. Shunday badiiy usullar

⁵⁹ Г. В. Драч, В. К. Королев, О. М. Штомпель. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. «Феникс» 2-изд. 2002. С. 197

vositasi bilan rasmlar yaratish orqali ularda real narsalar, obyektlarni tasvirlash emas, balki o'zining o'ta g'ayritabiiyligi, yorqinligi, hashamdorligi bilan alohida his-hayajonli kayfiyat hosil qilishdan iborat. Bu oqim namoyandalaridan biri Matisning ta'kidlashicha, "San'atning maqsadi — kartinada reallikni to'g'ri yoritishga etiborni qaratishdan ko'ra, yorqin buyoqlarni qo'shish orqali, ko'proq odamlarga quvonch baxsh etishdir".

Ingliz impressionistlari orasida Uolter Richard Sikkertning (1860-1942) ham o'rni beqiyos. U Myunxenda tug'ilgan(onasi daniyalik, otasi irlandiyalik bo'lgan). Sakkiz yoshidayoq oilasi bilan Londonga ko'chib kelgan. U Londonda Sleyd badiiy maktabida o'qidi. Keyinchalik Parijga ko'chib ketda va u yerda Uistler studiyasida bo'ldi. u bu yerda dastlab Uestlerdan ta'lim oldi. Keyinchalik Dega bilan uchrashib qolgach, uning hayotida tub o'zgarishlar davri boshlandi. Sikkertning eng mashhur asarlari "Zerikish" (1914-yil; London, Teyt galleriyasi), "Eski Bedford" (taxminan 1890-yil; Kembridj) va "Yangi Bedford" (1918-yil; Lids, Badiiy galleriya) hisoblanadi. Sikkert nozik badiiy tanqidchi va nazariyotchi edi. Uning ijodi XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ingliz badiiy san'atining rivojiga muhim hissa qo'shdi.⁶⁰

"Yangi badiiy jamoa" ning asosiy vakillaridan biri Uilyam Orpen (1878-1931-yillar) iste'dodli portretchi va rassom, ingliz portret janri an'alarini davom ettirgan vakil edi. Rassom yangi impressionizm usullari bilan an'anaviy rassomchilik uslublarini uyg'unlashtirib yubora oldi. "Mane shon-sharafi" (1909-yil; Manchester, Badiiy galereya) asari ingliz portret janri an'alarini bilan birga fransuz rassomchilik an'alarini ham mujassamlashtirdi.⁶¹

"Yangi ingliz badiiy jamoasi" bilan bir vaqtda Glazgodagi Badiiy maktab ham o'z faoliyatini jadallashtirdi. Bu yerda tashkil etilgan "Portretchilar va

⁶⁰ Г. В. Драч, В. К. Королев, О. М. Штомпель. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. «Феникс» 2-изд. 2002. Стр. 198

⁶¹ Всеобщая история искусств. Т 5. Под общей редакцией Ю. Д. Колпинского и Н. В. Яворской. М., Гос. Изд. «Искусство» 1964. Стр. 324

akvarelchilar jamiyati” va XIX asr oxirida tashkil etilgan “Haykaltarosh, rassom va grafikachilar jamiyati” mashhur edi.⁶²

Italiya futuristlari ham ingliz san’atiga ta’sir ko’rsatishga muvaffaq bo’lishdi. 1901-yilda Londonda Marinetti boshchiligida tashkil etilgan ko’rgazma “Kelajak rassomlari” ingliz guruhining tashkil etilishiga olib keldi. “Vortitsizm” nomini olgan ushbu yo’nalishning tashkilotchilaridan bo’lgan Uinxem Lyuis (1882-1957-yy) va Kennet Nevinson (1889-1946-yy) fransuz kubistlari malakasini o’zlashtirishni maqsad qilishgandi. Shuni ta’kidlash o’rinliki, Nevinson va erik Kennington birinchi jahon urushida ishtirok etgan rassomlar hisoblanishadi.

Imressionizm rassomchilikning ming yillik ananalariga nuqta qo’ydi. Ular birinchilardan bo’lib abstraksionizmga qadam qo’ydi. Rassomlar real shakl va ranglardan voz kechib, o’z taassurotlarini chizish bilan cheklandilar.

Impressionistlar ko’proq o’z diqqatini tasvirlash imkoniyatlariga qaratdilar. Bu ular yo’nalishining dasturiy talabi emas balki, faqatgina ularning shaxsiy tushunchalari ham edi. Ular odamni yoki tabiat ko’rinishini tasvirlashda rasmni asl nusxaga aniq o’xshashi emas, balki uning shakli va rangini saqlagan xolda ko’proq chiziqlarini tasvirlashga harakat qilganlar.⁶³

Yangi yo’nalishning ilk vakili Eduard Mane (1832-1883) (“o’tloq ustidagi nonushta”. “Olimpiya”) lekin, impressionizm o’zining yuksak yutuqlari uchun Mane bilan bir vaqtda ijod qilgan Mone, Renuar, Dega va Pissarro kabi o’z kasbining ustalaridan minnatdor bo’lishi kerak. Birinchi impreyesionalistik rasmning birinchi namunasi-bu Klod Mone (1840-1926)ning 1874 yilda yaratgan “Tasurot”, “Quyosh chiqishi” polotnosi hisoblanadi. Bu polotno nomini (“Impression”-tassurot). Kamil Pissarro (1831-1903), Alfred Sisley (1839-1899), keyinroq Ogyust Renuar (1841-1919) kabi rassomlar guruhiga nisbatan qo’llay boshlashdi. Mone chizgan rasmda sof optik obraz nozik nur sohib suvdan ko’kga ko’tarilayotgan quyosh tasvirlangan. Shubhasiz Mone, ko’rish bobida ixtirochi, geniy bo’lgan. U nur va rang nisbatini, boshqalar ungacha ilg’amagan uyg’unligini

⁶² Е.П. Борзова, А.В. Никонов - История мировой культуры в художественных памятниках. 2003. С. 322

⁶³ И. Жиликов от. ред. История мировой культуры. Ростов-на-Дон. 2002. С. 258

ko'ra olgan. Impressionistlar tabiatning tez o'zgarayotgan holatini tasvirlay olishgan. Monening Parijdagi "Kapusinalar bulvari" va Piyessarroning "Monmartir bulvari" polotnolari o'tgan asrdagi eng yaxshi shahar manzaralari hisoblanadi. Ogyust Renuar tasvirlagan go'zal va maftunkor ayollar modellari, kam uchraydigan ranglar sofliqi bilan odamlar ko'zini quvontiradi. Edgar Dega (1834-1917) odatda teatr sahnasi, poygalarni tasvirlagan. U hayotdagi tasirchan, dinamik lahzalarni ilg'ay olgan. Uning raqqosalari, joker va otlari harakatda bir lahzaga to'xtaganday ko'rinadi "Yulduz", "Moviy raqqosalar" va sh.k.

XX asr boshlarida ijod qilgan, ingliz tuprog'ida voyaga yetgan rassom Frenk Brengvin (1867-1956-yy). Brengvin Bryuggeda tug'ildi. U yerda uzoq yashamadi: bolalik chog'idayoq u Londonga ko'chib o'tdi. Brengvin Londonda A. Legro qo'lida badiiy ijod sirlarini o'rgandi. Legro fransuz grafikasining yirik namoyondalaridan biri bo'lib, uzoq vaqt Angliyada yashagan va ko'plab shogirdlar tarbiyalagan edi. boshqa ko'plab iste'dodli rassomlar kabi badiiy qobiliyat Brengvindancha yoshligidayoq namoyon bo'la boshladi. U o'n olti yoshlik chog'ida U. Morrison bilan tanishib qoladi va gilamdo'zlik faoliyati bilan shug'ullana boshlaydi. Brengvin ushbu jarayonda amaliy san'atning qadrini, amaliy grafikaning muhimligini tushunib yetdi. O'n sakkiz yoshligida romantik hayot dengiziga sho'ng'ib ketdi. 1890-yildayoq u yirik tasviriy san'at asari "Bortda", keyinchalik "Qullarning o'g'irlanishi" (1891-yil) va "Dengizdagi dafn" (1904-yil; Glazgo) asarlarini yaratdi. Uning ranglarni his qila olishi, yuksak darajadagi bezaklarga boyligi akvarelda ham ko'rinadi. London birjasi uchun "Zamonaviy savdo" (1906-yil) va London Ko'nchilar uyiga ishlagan bezaklari uning ijodining cho'qqisi hisoblanadi.⁶⁴

Asarlarining mavzusi – serzavq va og'ir, sust va ko'rkam insonlar – 1903-yildan 1912-yilgacha ishlangan rassomning ofortalari (kislota bilan o'yib ishlangan naqsh va undan bosilgan surat) syujetlaridir. Ushbu ofortalar – hajmi jihatidan judayam katta, Brengvin tomonidan yangicha ko'rinishda, hajmda ishlangan – tomoshabinni hayotga diqqat bilan razm solishga undaydi. Brengvin grafik asarlar

⁶⁴ Чекалов Д. А. Кондратов В. А. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. ФЕНИКС. 2005 стр. 307

o'ziga xos xususiyatlarini hayratlanarli darajada his qila olgan. Uning iste'dodi esa oq-qora qog'ozga gradatsiya (bir bosqich yoki holatdan ikkinchi bosqich yoki holatga o'tishdagi izchillik) va kontrast (ko'zga tashlanadigan qarama-qarshilik) ni yaxshi ifodalab berishda unga yordam bergan. Birinchilardan bo'lib Brengvin o'z asarlarining chekka qismlarini qora, yorqin bezaklarga boy xoshiya va shtrix chiziqlar bilan bezatdi, har bir kompozitsiyasiga ustalik bilan sayqal bera oldi. "Venetsiya. Santa Mariya della Salyute cherkovi" (1907-yil) ofortasida Brengvin yuksak mahorat bilan kulrang-qora va kulrang chiziqlar bilan silliq-qora dog'larni uyg'unlashtirib yubora olgan. Asarlarining ma'nodorligi yuksakdir. Uning arrakashlari, port ishchilari, yuk tashuvchilari, daraxt kesuvchilari, chalg'ichilari – kuchli, jasur, mehnatsevar odamlar, uning qurilishlari mahobatli, peyzajlari lirik va ulug'vordir. 1905-yilda toshbosma usulida ishlangan ajoyib "Yuk ortuvchilar" asari ofortaga yaqin uslubda bajarilgan.⁶⁵

1914-1918-yillarda ishlangan plakat va toshbosma usulida ishlangan asarlarida Brengvin rassom va inson kabi namoyon bo'ladi. Bu yillarda ishlangan eng yaxshi plakat va tosh bosma asarlarida u nafaqat askarlar jasoratini madh etdi, balki g'ayriinsoniy urushning barcha shafqatsizliklarini darg'azablik bilan fosh etdi. "Belgiyani eslab qoling" (1915-yil) uning shunday asarlaridan biri bo'lib, qo'rqinchli ko'tarinkilik va qattiq ishonilgan ma'nodorlikni ifodalab berdi. O'z asarlarining mavzusi jihatidan Brengvin Kete Kolvits va Frans Mazerelga yaqin turadi. Ofortalarining aniq bir maqsadga yo'naltirilganligi, mahobatlilik, erkin va yangi badiiy vositalari frenk Brengvinni XX asr boshlaridagi grafikachilarning eng mashhurlaridan biriga aylantirdi. Buyuk mashhurlikka va akademik unvoniga erishgan sakson besh yoshli Brengvin o'zining ko'rgazmasini anchayin keyinroq, 1952-yilda ochdi. Bu ko'rgazma Angliya tarixida hayot bo'lgan rassom tomonidan qurilgan birinchi retrospektiv (o'tmishga nazar solib ishlangan) ko'rgazma bo'ldi. Unda ijodi asosan XX asr boshlarida gullab-yashnagan rassomning deyarli 500 ta

⁶⁵ Г. В. Драч, В. К. Королев, О. М. Штомпель. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. «Феникс» 2-изд. 2002. С. 201

ishi namoyish etildi. Shunday bo'lsa-da, Brengvin o'z ona vatanidan xizmatlari uchun biron marta taqdirlanmadi.⁶⁶

Yana bir taniqli ingliz rassomi va grafikachisi Ogastes Jonning faoliyati ham katta qiziqish uyg'otadi. U 1878-yilda Angliyada dunyoga kelgan. Uning ijodi Britaniya tasviriy san'atida o'ziga xos cho'qqiga erishgan. O'zining tengqurlari singari Jon ham Sleydning badiiy maktabida o'qidi(1894-1898-yillar). Bu yerda u iste'dodli rassom bo'lib yetishdi. Tuyg'ulari tug'yon uradigan va g'ayratli Jon o'z ona vatani Uels bo'ylab lo'lilar to'dasiga hamroh bo'lib ko'p marotaba sayohatlarga chiqdi. U xalq hayotining ajoyib ko'rinishlarini yorqin va hissiyotli tarzda o'ziga qabul qildi. Hayotiy va xususiyatlarga boy portretlarini u lo'lilarning yorqin, tasviriy obrazlaridan boshladi. Uning dastlabki asarlari qahramoni sifatida Gogen obrazi ko'p marotaba uchraydi. Jon 1903-yilda "Yangi badiiy jamoa"ga a'zo bo'lgan edi. Uning ushbu jamoa ko'rgazmalarida namoyish etilgan portretlari yuqori baholarga sazovor bo'lgan. Keyingi hayotining ba'zi qismini u Fransiyada o'tkazgan bo'lsa-da, bu Jonning ijodiyotiga zig'ircha ta'sir o'tkazmadi. U o'tgan o'n yillar ichida ham o'z uslubini o'zgartirmadi. Rassom mahobatli asarlar yaratdi. Shunday asarlardan biri "Lirik fantaziya" (1911-yil; London, Uaytchepl galeriyasi) bo'lib, u devoriy tasviriy asarlar talablarining barchasiga javob bera oladi. Biroq O. Jon ijodining asosiy yo'nalishi – portret janri hisoblanadi. Uning "Kulayotgan ayol" (1910-yil) ingliz an'analarini davom ettirgan ulug'vor-monumental asardir. Buyuk yozuvchiga bag'ishlangan "Bernard Shou portreti"(1913-1914-yy; Kembridj, Fitsuilya muzeyi)da rassom uning o'tkir nihoglarini mohirona tasvirlagan. Boshqa asarlar singari ushbu portret ham mashhur bo'lib ketdi. Rassom nafaqat tashqi ko'rinishni, balki uning murakkab ruhiy olamini ham ochib berishga harakat qilgan. Uning ayollarga bag'ishlangan asarlari ichida eng mashhuri – "Tik turgan Doreliya"(1910-y) asari hisoblanadi.⁶⁷

⁶⁶ Г. В. Драч, В. К. Королев, О. М. Штомпель. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. «Феникс» 2-изд. 2002. С. 201

⁶⁷ Г. В. Драч, В. К. Королев, О. М. Штомпель. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. «Феникс» 2-изд. 2002. С. 202

Jon Uilyam Uoterxaus (1849-1917-yy) postrafaelchilar davrining oxirgi davrida ijod qilgan ingliz rassomi. U o'zining afsona va badiiy asarlardan olingan ayollar siymolarini tasvirlashi bilan mashhur bo'lgan.

Rimda rassomlar oilasida tug'ilgan Uoterxaus keyinchalik Londonga ko'chib keladi. Dastlab otasining qo'lida rassomlik sirlarini o'rgana boshlaydi, 1870-yildan esa Londondagi Qirollik Rassomlik akademiyasida tahsilni davom ettiradi. 1874-yilda ko'rgazmaga qo'yilgan uning "Quyosh va uning o'gay ukasi O'lim" asari tanqidchilar orasida mashhur bo'lib ketdi. Shundan keyin 1917-yilgacha bo'lgan davr oralig'ida uning asarlari har yili o'tkaziladigan ushbu Akademianing ko'rgazmalarida namoyish etiladigan bo'ldi. Uoterxaus 1895-yilda Qirollik akademiyasi a'zosi bo'ldi. uning eng mashhur asarlaridan biri "Shalotlik Ledi" hisoblanadi. Ushbu asarni u Artur haqidagi afsonadan olgan.⁶⁸

XIX asr o'rtalarida ingliz tasviriy san'ati tushkunlikka uchray boshladi. Unda haqiqiy hayotdan yiroqlik, meshchanlik paydo bo'ladi. Shunday jarayonda ingliz san'atini yangilash "Postrafaelchilar birodarligi" degan nom oldi. Bu harakat 1848-yilda burjua sivilzatsiyasiga, o'z qiyofasidan ajralganlikka va zamonaviy san'atning bo'shliqlariga qarshi turgan rassom va shoirlar tomonidan asos solindi. Ular Uyg'onish davrining Rafaelgacha bo'lgan san'atini o'zlarining ideallari deb e'lon qilishdi. Biroq XV asr san'atiga qaytish o'sha davrda kapitalizm yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan Buyuk Britaniya uchun utopiya edi. Rassomchilikdagi postrafaelchilar tashqi jimjimadorlik va simvolizmga yoki sof naturalizm tartiblariga e'tibor berishdi. Uning roli ayniqsa badiiy ishlab chiqarishda ko'proq namoyon bo'ldi. 1860-1880-yillarda keng tarqalgan ushbu yo'nalishga Uilyam Morris rahbar qildi.

Postrafaelchilarning yirik vakillaridan yana biri Eduard Koli Bern-Jons hisoblanadi. Bern-Jons (1833-1898-yy) postrafaelchilarning ikkinchi avlodiga tegishli edi. Oksford universitetining talabalari bo'lgan Morris va Bern-Jons bu yerda postrafaelchilar oqimining namoyondalaridalaridan biri Dante Gabriel

⁶⁸ Всеобщая история искусств. Т 5. Под общей редакцией Ю. Д. Колпинского и Н. В. Яворской. М., Гос. Изд. «Искусство» 1964. С. 329

Rosetti bilan tanishishdi va ushbu oqim namoyondasiga aylanishdi. Bern-Jonsning asarlari orasida “Qirol Kafetua va tilanchi xotin”, “Yiqilganlar orasidagi sevgi”, “Muhabbat qo’shig’i” kabi asarlar mashhur hisoblanadi. Uning qahramonlari jonsiz, lanj, iztirobda qolgan insonlardir.⁶⁹

Yana bir postrafaelchilar oqimining vakili Uilyam Xolman Xant hisoblanadi. Xant Qirollik akademiyasining talabasi bo’lgan. Xant bu yerda Mille va Dante Gabriel Rossetti bilan tanishdi va “Postrafaelchilar birodarligi” a’zosi bo’ldi. Uning eng mashhur asarlaridan biri “Dunyo nuri” bo’lib, bu asar muallifning 1854-1855-yillarda Sharqqa qilgan sayohati taassurotlari sifatida yozilgan.

Yevropa pozitivizmi g’oyalarining yuksak cho’qqisi hisoblangan realizm XIX asr oxiri XX asr boshlarida yangi badiiy ko’rinish va jarayonlarni boshlab berdi. Ushbu jarayonni ifodalash uchun *modernizm*(*fr. moderne – za, onaviy, yangi*) atamasi qo’llaniladi. Eng avvalo, modernizm deganda san’atdagi ko’p yo’nalishlilik, an’anaviy estetika(realizm va naturalizm)ga qarshi tura oladigan maktablar tushuniladi. Modernizm – murakkablik va serqirralikka ega bo’lib, unda ko’plab davriy bosqichlarni ko’rsatish mumkin. Birinchisi, *dekadans* yoki ilk modernizm bo’lib, XIX asrning so’nggi 30 yilini o’z ichiga oladi. Ikkinchisi, XIX asr oxirlaridan XX asr o’rtalarigacha davom etgan bosqich bo’lib, uni modernizm yoki barkamol modernizm deb atash mumkin. Uchinchi bosqich esa modernizmning o’ziga xos, badiiy ko’rinishi bo’lib, *avangardizm* nomini olgan. Bu bosqich XX asr 10-yillarida vujudga kelgan.⁷⁰

XIX asr 80 yillarga kelib impressionalizm yo’nalish sifatida o’zining barcha tasvirlash imkoniyatlarini namoyon qilib bo’ldi va endilikda uning o’rniga impressionistlarning tasodifiy va lahzalik tasvirlariga javoban eksimpressionalizm paydo bo’ldi. Postimpressionistlar rassom taassurotlari va kechinmalariga qarshi o’laroq tasvir jarayoniga falsafiy yondoshdilar. Vinsent Van Gog (1852-1890) va Pol Gogen (1848-1903) kabi yorqin rassomlar paydo bo’ldi. V. Van Gogning

⁶⁹ Владимир Малинкович. Очерки истории европейской культуры нового времени. С. 105

⁷⁰ Всеобщая история искусств. Т 5. Под общей редакцией Ю. Д. Колпинского и Н. В. Яворской. М., Гос. Изд. «Искусство» 1964 стр. 351

“Dehqon qiz”. “Yig’loqi Kartofelya” rasmlarida oddiy odamlar hissiyotlari chuqur aks ettirilgan.⁷¹

O’z zamonasining burjua qatlamlariga bo’lgan nafrati natijasida Gogen Okeaniya orollarida yashab, o’sha joydagi sivilizasiyadan yiroq, ananaviy hayot tarzini original tasvirlovchi rasmlar yaratgan. Bular jumlasiga “Meva ushlagan ayol” “Qirol rafiqasi” kabi mashhur asarlarni nisbat berish mumkin. Xuddi shu davrda Donye, Milde, Brulov, A.I.Ivanov va boshqa rassomlar ham barakali ijod qildilar.

XX asr boshida vujudga kelgan badiiy avangardning yana bir yunalishi - Ekspressionizmdir. U ekspressiya so’zidan olingan bo’lib, ta’sirchanlik, hayajonlilik ma’nosini bildiradi. Bu yo’nalish sanatkorlarni qurshab olgan voqeilik xususida o’z hissiyotlari, fikrlarini ifodalashdir. Ekspressionizmning muhim ajralib turuvchi xususiyati - badiiy usullarning muayyan tizimida faoliyat yuritish emas, balki hozirgi dunyodagi inson ahvolini mumkin qadar hayojonli, dramatik ko’rinishlarda tasvirlashdan iboratdir. Ularning fikricha, hozirgi ijtimoiy tizimlar mohiyatan insonga ziddir. Ijtimoiy tizim, davlat, iqtisodiyot, sotsial institutlar o’z qonunlari bilan yashaydi. Ularda inson individiga g’amxo’rlik qilishga imkoniyat yo’q. Ular ijodiyoti uchun ofat keltiruvchi ijtimoiy fojialar, falokat manbai - jahon urushlari, totalitar rejimlar, ekologik ofatlarni his etish ko’proq xosdir. Bu oqim dastavval Germaniyada tarqaldi.

XX asrning 10-20 yillarida avangard oqimlari Rossiyada ham ildiz ota bordi. S.N.Gonchareva. P.Konchalovskiy. K.Korvin va boshqalar ijodida abstraksionizm, mavhumiylik, yani real voqeilik shakllarini tasvirlashdan voz kechish qarashlari ko’proq o’rin oldi. Shu oqim vakili V.Kandinskiy fikricha, abstrakt san’at - bu ruhiy san’atdir. Binobarin, u avvalo inson ruhiy olamini ifodali aks ettirishga yo’налgan.

San’atning muhim oqimi sifatida XX asrning birinchi choragida vujudga kelgan yana bir yangi oqim - bu kubizmdir. Bu oqim realizmga qarama-qarshi ularoq borliqni ko’proq geometrik chizikli shakllarda tasvirlashga intiladi. Bu oqim

⁷¹ И. Жиликов от. ред. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. 2002. С. 264

yaratilishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Pikasso ijodining muhim jihatlari bunga yaqqol misol bo'la oladi.⁷²

⁷² Г. С. Кнабс, И. В. Кошдаков, Т. Ф. Кузнецова и др. Культурология: История мировой культуры: Учеб. Пособие. М.: Издательский центр «Академия», 2003. Стр. 321

II.2. Sahna va teatr san'ati, ijod namunalari

XIX asr 50-yillarida qirolicha Viktoriya sharafiga “Qirolicha teatri” nomini olgan teatr mashhur bo'ldi. Uning rahbari iste'dodli targediyalar muallifining o'g'li Charlz Kip (1811-1868-yy) bo'lib, u otasining muruvvatiga ko'z tutmadi. Otasi mashhur aktyor bo'lsa-da, uning repertuarida Shekspir asarlari ko'proq o'rin egalladi. “Qirolicha teatri” Kipgacha bo'lgan davrda faqat opera sahnasida qo'llangan teznik va musiqali effektlardan, tomoshabinlar tasavvurini egallashning noodatiy usullaridan foydalangan. Ushbu hashamat va dabdabalar oldida aktyorlar ham hayratda qoldilar. O'sha davr tanqidchilaridan biri “Qirolicha tetari”ning aktyorlari o'z san'atining sifatini ko'rsatmoqchi bo'lgan, umumiy obrazlardagi duradgor ishlagan yog'och qo'g'irchoqni eslatardi.” - degandi.

XIX asr 70-yillarida G'arbiy Yevropa teatr jamoalari orasida sahna san'atini yangilash, ko'chmas teatrlarni doimiy aktyorlar ansambli bilan yaratish va dekoratsiyani isloh qilish haqidagi chaqiriqlar yangray boshladi.⁷³

Burjua teatr san'atidagi ushbu yo'nalishning keyingi taraqqiyoti XIX asr so'nggi choragining masshhur aktyori va rejissori Genri Irving (1838-1905-yy) nomi bilan bog'liq. O'sha vaqtdayoq mashhur bo'lib ulgurgan aktyor 1878-yilda “Litseum” teatrlarini boshqarishni o'z qo'lga oldi va uni poytaxtning eng taniqli teatriga aylantirdi. Aslida melodramachi bo'lgan aktyor Irving ko'plab Shekspir asarlari qahramonlarining rollarini ham mahorat bilan ijro etgan. Xususan, u mashhur Gamletning rolini ham o'ynagan. Uning muvaffaqiyatsizlikka uchragan (masalan, Otello) roliga nisbatan ushbu yirik muvaffaqiyat Irvingning Shekspir asarlari repertuaridagi yagonasi hisoblangan. Gamletdagi buyuklik, aristokratlarga xoslikdan Irving o'zini plebeylar o'rab turishi, an'ana va obro'-e'tibori bo'lmagan mahmadonlardan biroz cho'chidi. Ushbu davrdagi Angliyaning dunyoda sanoat birinchiligini qo'ldan boy berishi ssahna ortida ishchilar harakatining to'liqlinini kuchaytirib yuborgan edi. insoniyat buyuk ijtimoiy o'tish davriga qadam qo'ygandi. “Zamon bilan aloqasi uzilgan” Gamlet obrazi ham keskin o'zgarishlar

⁷³ Чекалов Д. А. Кондратов В. А. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. ФЕНИКС. 2005 стр. 304

davrining ilg'or kishilari timsolini gavdalantirgandi. Irving yaratgan obrazlarning o'xshashi yo'q.⁷⁴

Irving 1856-yilda ilk bor sahnaga qadam qo'ygan va 1871-yilda Leopold Lyuisning "Qo'ng'iroq" pyesasida o'ynagan roli bilan mashhur bo'lib ketgan. U "Litseum" teatrini 1878-yildan 1903-yilgacha boshqardi. Irving Qo'shma Shtatlarga bir necha bor gastrollar uyushtirdi va mashhur bo'lib ketdi.

"Litseum" teatrining zamonaviy repertuari unchalik mashhur bo'lmagan dramaturglarning turmush hayotini aks ettiruvchi pyesalaridan iborat. O'sha davrdagi Ibsen va Shouning jamiyatdagi muammolarni o'zida aks ettirgan asarlari ushbu tetar sahnasiga qo'yilmagan.

"Litseum"ning konservativligi va noma'lumligi Elen Terri (1848-1928-yy) kabi taniqli iste'dodli aktrisaning ijodiy hayotida muhim ahamiyat kasb etdi. 20 yil davomida Genri Irving bilan hamkorlikda faoliyat olib borgan aktrisa uning o'yin odatining mulohazali, sovuq bo'lishiniga itoat etmadi. Klassik repertuarda bo'lgani kabi, zamonaviy repertuarda ham u o'z qahramonining gumanistik, umuminsoniy jihatlarini ochib berishni maqsad qilgandi. Emotsiyalilik, melodrama darajasigacha tushmaslik, yumshoq lirizm, insoniylik, hislarning erkinligi – bularning barchasini Terri o'z hayotidan, o'z shaxsiy kuzatishlaridan olib, sahnaga olib chiqdi. Uning intim va samimiy harakatlari o'taketgan rasmiyatchilik va viktorian taomiliga shafqatsiz kurashni aks ettirishini aktrisaning o'zi tushunib yetmagan. Agar 80-yillarda zamonaviy ingliz dramaturgiyasi mukammal bo'lmagan bo'lsa-da, ushbu yillarda boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi Angliyada ham taniqli norveg dramaturgi Genrix Ibsenning pyesalari keng tarqaldi. Shou ushbu mashhur asarlarning bosh qahramoni rolida Elen Terrini ko'rishni istagan. Biroq, na Irving, na uning ta'sirida bo'lgan aktrisa Terri yangi dramaturgiyaning buyuk imoniyatlarini to'g'ri baholay olmadilar.

Barcha rasmiy tanqidlar ayrim ingliz teatrlarida Ibsenning dastlabki sahna asarlarida shiddat bilan yog'ildi. Ko'rinishidan Ibsen ko'plab burjua tartiblariga va bid'atlariga qarshi chiqqan. Aynan shuning uchun Shou Ibsenga uchuni urush

⁷⁴ Кертман Лев. География, история и культура Англия. С. 154

boshlagan hamda san'atkorlar va yozuvchilarning progressiv namoyondalarining qo'llab-quvvatlashiga erishgan. Ibsenni tan olish uchun kurash bir vaqtning o'zida realistik teatr san'ati uchun kurash ham edi.⁷⁵

XIX asr oxirlariga kelib G'arbning barcha teatrlarida bo'lganidek, ingliz teatrida ham realizm kurtak yoza boshladi. Teatrlar naturalistik "hayot qonunlari" chegaralaridan chekinib, o'z faoliyati markaziga jamiyatning eng muhim mavzularini olib chiqishga harakat qila boshladi. Bu jarayonda Ibsen, Bernard Shou, Jon Golsuorsi va boshqa qator realistik yozuvchilarning asarlari bilan hissa qo'shdilar.

Eng yaxshi chet el dramaturgiyasi asarlari bilan ingliz tomoshabinlari orasida tanilib ulgurgan va realistik teatrning rivojlanishida muhim rol o'ynagan tetar bu – Erkin teatr hisoblanadi. Uni 1891-yilda Shou va boshqa progressiv madaniyat namoyondalarining qo'llab-quvvatlashi bilan antreprenier(teatr, sirk va shu kabilarning xo'jayini) Jakob grayn tashkil etgan edi. mashhur teatrlar mutassibliigidan qutilishni orzu qilgan aktyorlar unda mehnatlari uchun haq ham talab qilishmagan. Progressiv jamoatchilikning qo'llab-quvvatlashi Erkin teatrga 1897-yilgacha o'ttiz oltita zamonaviy pyesani namoyish etish imkonini berdi. Teatr tijoriy maqsadlarni ko'zlamagan va shuning uchun u spektakllarni qayta namoyish etishga urinmagan. Grayn va uning do'stlari "repertuar teatr"ni namoyish etishni boshlab berishdi. Bu teatrdagi o'rnatilgan siyosiy tuzumga qarshi bo'lgan turli xil repertuarlar namoyish etilgan. G'ayratli aktyorlar rahbarlik qilayotgan repertuar teatrlar Manchesterda, Liverpulda vujudga keldi va ularning realistik san'at tashviqotidagi roli katta bo'ldi. Ushbu progressiv harakat oqimida XIX asr oxirida Dublinda Irlandiya milliy teatri vujudga keldi.

Erkin teatr boshlab bergan ishni davom ettirish uchun progressiv aktyorlar va yozuvchilar 1899-yilda Teatr jamiyatini tashkil etishdi. U klub hisoblanib, senzura holi edi. Ibsen, Tolstoy, Chexov, Gorkiy uning repertuariga qat'iy bog'langan edilar. Biroq, Erkin teatr ham, Teatr jamiyati ham faqat chet el repertuari bilan chegaralanib qolishni maqsad qilishmagan. O'zlarining umri

⁷⁵ Кертман Лев. География, история и культура Англия. С. 155

davomida ushbu realistik teatrlar tanqidiy realizmning ijtimoiy qanoatlantirilgan dramaturgiyasini rivojlantirishga xizmat qilishdi. XIX asr oxirida ushbu teatrlarda tanilishga muvaffaq bo'ldi.

Angliyada tanqisiy realizmning ko'zga ko'ringan namoyondalaridan biri Bernard Shou edi. Nafaqat etikaga oid, balki ijtimoiy va siyosiy mavzudagi asarlar ham yozgan yozuvchi-kurashchi, mitingchi-orator, ijtimoiy va siyosiy traktatlar muallifi, iste'dodli jurnalist, musiqaviy va tanqidiy realist Shou sahnaga o'z davrining asosiy ijtimoiy muammolarini olib chiqdi. San'at – siyosiy kurash quroli, deb hisoblagan Shou o'z pyesalariga hayotdagi qarama-qarshiliklarni mavzu qilib oldi. Uning qahramonlari ijtimoiy tashkilotlar saylovlari, mitinglar, nashrlar haqida bahslashadi.

Bular Shouning badiiy novatorlik manbalari hisoblanadi. 1892-1894-yillarda yozilgan hamda 90-yillar – 1900-yillarda Erkin Teatr va Teatr jamiyatida qo'yilgan “Yoqimsiz pyesa” xususiy mulkchilik dunyosi va uning jirkanch axloqini o'tkir tanqidiy fosh qilishi bilan ajralib turadi.⁷⁶

XIX asr oxirlarida Angliya madaniyatida teatrning ham roli beqiyos bo'ldi. Teatr hayotining rivojlanishi yangi teatr san'ati sifatida tug'ilishi nishonlandi. Asr oxiriga kelib og'ir davr sharoitlarida teatr ustalari orasida g'oyaviy va estetik yaqinlashuv ro'y berdi.⁷⁷

Avvalo teatrdan hukmron mavqeini realizm egalladi. Ko'plab teatr namoyondalari Shekspirning klassik an'analaridagi realizmga ishonchni saqlab qoldilar. Realizmning ushbu yo'nalishi ikkita buyuk aktyorni tarbiyalab berdi. Ulardan biri Genri Irving va ikkinchisi Ellen Terri edi.

Realistik teatrning yana bir boshqa yo'nalishi yangi muammolar va yangi badiiy shakl asosi bilan bog'liqlikda edi. ushbu yo'nalish “yangi drama” nomini oldi – jamiyat ahamiyatiga egaligi, tanqidiy, axloqiy-muammoli, psixologik, zamonaviylikka faol munosabatda bo'lgan yo'nalish edi. “Yangi drama”ning sahnadagi murakkab yo'li(teatrning ko'plab namoyondalari unga ishonchsizlik

⁷⁶ Кертман Лев. География, история и культура Англия. С. 156

⁷⁷ И. В. Григорьев. Новая история стран Европы и Америки. М., МГУ. 2001. С. 108

bilan munosabatda bo'lganlar) “erkin teatr”ning vujudga kelishida hamroh bo'ldi. Ta'kidlaganimizdek, “Erkin teatr” 1891-yilda, “Sahnaviy jamiyat” esa 1899-yilda vujudga keldi.⁷⁸ Ular sahnada Ibsen, Chexov, Gaupman kabi realistik dramaturgiya vakillarining asarlarini targ'ib qilishdi.

Teatrda realistik san'atga qarshi pozitsiyada simbolizm turdi. Bu yo'nalishning yorqin vakili E. Terrining o'g'li Gordon Kreg (1872-1966-yy) edi. Iste'dodli teatr namoyondasi – teatr nazariyotchisi, rejissor, rassom Kreg go'zallik kultining estetik dasturini qabul qildi. Go'zallikni Kreg umumlashgan butunlik sifatida, to'liqlik, detallarga joy yo'q bo'lgan yagonalik sifatida, tushundi. Realistlar kabi Kreg ham Shekspir dramaturgiyasiga yuzlandi. Kregning teatri “parda” g'oyasini gavdalandirdi – sahna va harakatlarni almashtirib turuvchi geometrik arxitektura qurilmalari joriy etildi. Buning uchun yuqorisi to'g'ri burchaklik, romb tizimi va yo'laklardan foydalanildi. Kreg sahna ustaligining maqsadi dekoratsiya, chiroqlar, musiqa va ranglarning yagona umumiyligiga erishish hisoblangan.

XIX asr 90-yillari boshlariga kelib Londonning ikkita mashhur realistik teatrlari tashkil etildi: o'zining repertuariga Bernard Shouning avvalgi pyesalarini kiritgan “Erkin teatr” va Shekspir asarlarini namoyish etishga ko'proq e'tibor qaratgan “Old Vik” teatri hisoblanadi. Ularning faoliyati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida nafaqat ingliz teatridagi realizmning rivojlanishi, balki butun G'arb olamida ushbu yo'nalishga bo'lgan munosabatning ortishiga ham sabab bo'ldi. Shuningdek, XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi G'arbiy Yevropa teatr hayotining eng xususiyatli tomonlaridan yana biri bu – ularning har birida, shu jumlada, Angliyada ham, xalq teatrlarining tashkil etilishi.

Ushbu davrning yana bir xususiyatli tomoni unda modernistik xususiyatga ega bo'lgan yo'nalishning qaror topganligidir. U asosan Frnasiya va Angliya teatrlarida keng tarqaldi. Ushbu jarayon dastlab Fransiyada boshlangan edi. Angliyada esa bu jarayon Gordon Kreyg faoliyatida namoyon bo'ldi. U kamdan-kam spektakl namoyish etgan bo'lsa-da, biroq o'zining “Teatr san'ati” (1905-yil)

⁷⁸ И. В. Григорьев. Новая история стран Европы и Америки. М., МГУ. 2001. С. 110

kitobida modernizm tezislarini keng tashviq qilishning faol tashviqotchisi bo'lib chiqdi. Realizmni “vulgarizmni ifodalash vositasi” deb e’lon qilgan Kreyg “sof go’zallik uchun” kurashdi. U aktyorlar yuzini niqob bilan yashirishni yoki hatto aktyorlarni qo’g’irchioqlar bilan almashtirishni talab qildi. Uning fikriga ko’ra, bu narsa ideal bo’lar edi. Kreygning qarashlari teatrda e’tirof topmadi. Uning alohida asarlari uning metodlarining asossiz ekanligini ko’rsatib berdi(masalan, 1911-yilda Moskva Badiiy teatridagi “Gamlet” asari).

Modernizmning juda kuchli elementlari mashhur raqqosa Aysedora Dunkan ijodida ham yaqqol ko’zga tashlanadi.

XIX asr o’rtalaridagi viktorianlik davrining ikkita eng e’tiborli ikki xususiyatini keltirib o’tish joiz: eng avvalo, ushbu davrda ingliz mustamlakachilari, afyun urushlarini hisobga olmaganda, dunyo miqyosidagi hech bir yirik urushlarga kirishmadi. Ikkinchidan esa asosida puritanlik dogmatizmi yotgan inson shaxsiyati va ilmiy g’oyalarning rivojlanishi bilan bir vaqtda diniy masalaga qiziqishning ortib borishi hisoblanadi.⁷⁹

Bu davrda Britaniyaning qator muvaffaqiyatlariga qaramasdan, viktorianlik davrining shubha va insonlarning dindan ko’ngil qolishi davri ham bo’ldi. Bu ilmfanning rivojlanishi bilan bog’liqlikda Bibliya haqiqatlariga ishonchning yo’qolishini anglatardi. Charlz Darvinning 1859-yilda nashrdan chiqqan “Turlarning kelib chiqishi haqida” asari nafaqat ruhoniylar jamoasi tomonidan, balki konservativ xarakterdagi ilm-fan fidoyilari tomonidan ham keskin tanqidlarga uchradi. Uning inson va boshqa barcha tirik mavjudotlar uzoq rivojlanish – evolutsiya jarayonining natijasidir, degan nazariyasi insonlar ongida qattiq o’rnashib qolgan inson va barcha tirik jonzoqlar Xudo irodasi bilan mavjudligi haqidagi diniy ta’limotga mutlaqo zid edi.

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Angliyadagi diniy jarayonlar murakkablashdi. Dunyoning hech bir mamlakatida shu vaqtgacha va undan keyin ham hech bir xristianlik denominatsiya(qadrini o’rgartirish)si bunchalik qattiq

⁷⁹ Чекалов Д. А. Кондратов В. А. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. ФЕНИКС. 2005 стр. 309

turmagan va bunchalik boshqa bir xristianlik denominatsiyasiga amalda yuzlanmagan edi. Biz aynan shu shaklni ma'qullaymiz.

Ko'rinadiki, ingliz xristianligida o'xshashlik va bardoshlilik bo'lmagan. Umummillat miqyosida inglizlar protestantlikni "tinchlantirishga" qodir emasdi.

1864-yilda tashkil etilgan Sharqiy Cherkov assotsiatsiyasi anglikan cherkovi va Pravoslav cherkovlarining yaqinlashuvi yo'lidagi dastlabki qadam bo'ldi. Assotsiatsiyaning oldida turgan vazifa yagona Cherkovning bir qismi sifatida Anglikan cherkovining tan olinishiga da'vo qilinishi bilan Sharqiy cherkov haqida aniq ma'lumotlarni vujudga keltirishdan iborat edi.

XX asr boshlarida anglikan cherkovi ham o'z ta'sirini asta sekin yo'qota boshladi. Boshqa turli protestantlik denominatsiyalarida bo'lganidek, biroz avval barqarorlik ko'zga tashlangan ingliz Rim-Katolik cherkovida ham e'tiqoddan chekinish hollari yuz berish hollari kuzatilardi. Anglikan cherkovi hatto barcha inglizlarning Cherkovi mavqeyini ham yo'qotdi. Unga faqat Qo'shma qirollik jamiyatining xristianlik cherkovlaridan biri sifatida qarashardi. Shunday bo'lsa-da, u o'zining mavjud huquq va imtiyozlarini saqlab qoldi va jamiyathayotining ko'pgina sohalariga hamon kuchli ta'sir etmoqda edi. Xususan, teatr, badiiy adabiyot, arxitektura va haykaltaroshlik kabi sohalarida uning ta'siri sezilib turardi. Biroq Anglikan cherkovining rahbarlari orasida din va davlat munosabatlarining murakkab tizimini qayta ko'rib chiqish haqida gap-so'zlar tarqala boshladi.⁸⁰

XIX asr oxirida yashagan arxiyepiskop Devidson cherkovning asriy mavqeyini saqlab qolishni istagan, ammo dunyo uning bu holatini o'zgartirib borayotganligini, bu holatda cherkov ham qandaydir o'zgartirishlar qilishi kerakligini anglab yetadi. XIX asrda anglikan cherkovi ko'plab ichki o'zgarishlar va zarbalarga duchor bo'ldi. ular qatoriga Oksford harakati, Kafoliya ma'rifatchiligi, ritualizm, ijtimoiy muammolarning keskinlashuvi, ilohiyotning, cherkov madaniyatining, poeziya va adabiyotning mislsiz darajada ko'tarilishi va boshqalarni kiritish mumkin.

⁸⁰ Кертман Лев. География, история и культура Англия. С. 156

“Ritualizm” (diniy marosimlarni bajarish harakati) Anglikan cherkovining a’zolarida noroziliklarni keltirib chiqarardi. Ayrim cherkov a’zolari qator jangovar protestantlik cherkovi ittifoqlarini: Protestant haqiqatlari jamiyati, Protestantlar mudofaasi birlashmasi, “Uiklif payg’ambarlari” tashkilotlarini tuzishdi. Ular “papa ritualizmi”ga qarshi salib yurishini e’lon qilishdi.⁸¹

Diniy hayotdagi liberal kayfiyat XIX asr oxirida va XX asr boshlarida jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan bo’lsa-da, biroq u hali hamon kuchsiz edi. 1905-1907-yillarda bo’lib o’ygan liberal yevangelichilarning birinchi konferensiyasi natijasida “Birodarlik jamiyati” nomi ostidagi unchalik katta bo’lmagan ittifoq tashkil etildi. Jamiyat qator broshyular nashr etgan, shunday bo’lsa-da, u kam ta’sirli va deyarli noma’lum tashkilot bo’lib qoldi. XX asr boshlariga kelib Anglikan cherkovi ichida yana bir yangi fenomen vujudga keldi – modernizm. Liberalizmdan farqli ravishda u anglikan cherkovining “an’analari”dan biri bo’lmadi. Modernizm tashkil topishining aniq sanasi sifatida 1898-yil, diniy g’oyalarni rivojlantirish Anglikan cherkovi a’zolari ittifoq tashkil etishgan yil belgilangan. Modernizm faqat ilohiy jarayonlarni o’rganish bo’lib, unga ilmiy salohiyatga ega kishilarning unchalik katta bo’lmagan guruhi mansubdir. Ilgarigi modernizm “radikal teologiya”dan yiroq edi. Modernistlar teizmni qabul qilishdi, Xudoga ishonishdi. Modernistlarning amalga oshirgan eng yirik ishlaridan biri 1911-yilda “Modern Churchman” jurnaliga asos solishi va 1912-yilda “Asoslar” nomli to’plamni nashr etishlari va 1914-yilda modernistlarning birinchi cherkov konferensiyasini o’tkazishlari hisoblanadi. “Asoslar” to’plamini chiqarishdan maqsad zamonaviy ilm-fan va san’atning ilohiyot bilan aloqalarini o’rganishdan iborat bo’lgan.

1860-yilda yepsikop Uilberfors va Ch. Darvinning yaqin izdoshi T. G. Geksli o’rtasida tashkil etilgan mashhur Oksford munozaralaridan keyin fan dindand butunlay ajraldi.

Darvinning evolutsion nazariyasi tabiiy tanlanish, merosxo’rlik va o’zgaruvchanlik prinsiplarini mukammal tushuntirdi. Z. Freyd keyinchalik Xudo –

⁸¹ Чекалов Д. А. Кондратов В. А. История мировой культуры. Ростов-на-Дону. ФЕНИКС. 2005 стр. 312

qo'rqinch hosilasi, insonning ojizligi, qudrat, hokimiyat, himoya va homiyga qaratilgan maqsadlar haqidagi insoniy orzularning ongsizligidir, deya tushuntirgan edi.⁸²

Shunday qilib, XIX asr xristianlik kosmologiyasining inqirozi, barcha xristiancha dunyoqarashlarining inqirozga yuz tutishi davri bo'ldi. "Men ushbu gipotezaga majbur emasman" (Xudoning gipotezasi)dan Nitssheining "Xudo o'ldi, bu biz uni o'dirishimiz" iborasi tomon yo'naldi. Nitsshe uchun "Xudoning o'limi" nafaqat dinning almashinuvini aglatadi, balki xristianlik madaniyatining barcha qadriyatlaridan voz kechishni ham bildiradi.⁸³

⁸² Г. В. Драч "История мировой культуры" Ростов-на Дону. 2002. С. 383

⁸³ Г. В. Драч "История мировой культуры" Ростов-на Дону. 2002. С. 385

II.3. Badiiy arxitektura va me'morchilik namunalari, qurilish uslublari, badiiy estetik bezak turlari

XIX asr o'rtalarida ingliz amaliy-bezak san'ati tanazzulga uchradi. 1851-yilda Londonda tashkil etilgan butunjahon ko'rgazmasida turli davlatlar va xalqlar vakillari birinchi marta butun dunyoga o'zlarining kashfiyotlarini namoyish etish imkoniga ega bo'ldilar. Texnik muvaffaqiyatlar jarayonining namoyish etilishi odamlarga industrial sivilizatsiyaning haqiqiy yangiliklari bilan tanishish imkonini berdi. Tashrif buyuruvchilarning asosiy e'tibori Jozef Pekston loyihasi bo'yicha tiklangan billur saroy tortdi. Uni oyna va temirdan ishlashgan edi.⁸⁴

XIX asr o'rtalarida eski shaharlarda hayot suratlarining pasayishi odamlarning yangi shaharlar atroflariga borib joylashishiga olib keldi. Natijada shaharlar sekinlik bilan rejasiz kengaya boshladi. London, Glazgo, Birmingem, Liverpul va Manchester kabi shaharlar atroflari juda tezlik bilan kengayib bordi. Shunday vaziyatda Angliyada shaharlarni yangi ko'rinishda qurish g'oyasi paydo bo'ldi. uni mashhur jamiyatshunos Ebenezer Xouard (1850-1928-yy) ishlab chiqdi. Ulkan shaharlarning tabiiy ravishda rivojlanishi jrayaonida Xouard shahar-bog'lar yaratish taklifini ilgari surdi. Ushbu g'oyani amalga oshirishga dastlabki urinishni arxitektorlar R. Envin va B. Parker Londondan 50 km uzoqlikda joylashgan Lechvort shahri qurilishida amalga oshirdilar. 35 ming kishiga mo'ljallangan shahar ko'kalamzor hududlar orasiga qurildi. Shaharning savdo va jamoat binolari joylashgan markaziy qismining kompozitsiyasini yaxshilash bir qatorda arxitektorlar bir-ikki qatorli shaxsiy uy-joylarning joylashtirishi jarayonida erkin tasviriy tizimlardan ham keng foydalanishdi.

Qator afzalliklarga ega bo'lgan Lechvortning qurilishi keyingi yillarda ingliz va chet davlatlar shaharsozligi rivojiga o'zining kuchli ta'sirini o'tkazdi. U shaharlarda ijtimoiy obektlarning o'rnatilishida, yerlarni jamoaviy egalanishida rejaviy ishlarning ustunliklarini ishonch bilan ko'rsatib berdi. Biroq ushbu tajriba

⁸⁴ Е. П. Борзова. История мировой культуры. Москва. «Лань» С. 489

bunday shaharlarning faqatgina aholining boyroq toifalarini ta'minlaganligini ko'rsatdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Angliya shaxsiy uy-joy arxitekturasida qator yutuqlarga erishdi. Bu soha bir necha o'n yillar davomida Yevropaning boshqa davlatlari uchun na'muna bo'lib qoldi (XX asr boshlarida Yevropada Angliyaning shaxsiy uy-joy arxitekturasiga bag'ishlangan qator asarlar nashr etildi va ular Angliyaning bu sohadagi yutuqlarini dunyoga tanitdi. Shunday asarlar orasida nemis arxitektori G. Muteziusning "Zamonaviy ingliz arxitekturasida", 1900-yil; "Angliya uylari", 1904-yil va boshqalar). XIX asr o'rtalarigacha o'zining o'rta asrlarga xos xususiyatlarini saqlab qolgan Yevropaning boshqa shaharlaridan farqli ravishda ingliz shaharlari shaharni o'rab turuvchi devorlardan voz kechishdi. Dengiz bilan o'ralgan Angliya ko'p qavatli uylar qurilishini ham rivojlantirdi. Bu narsalar shaharning tezlik bilan kengayishi hamda milliy o'ziga xoslikka muvofiq turar joy qurilishining an'anaviy kottej turinining saqlanib qolishiga olib keldi.

Ushbu davrda turar joy arxitekturasida bir qator yirik ingliz me'morlari: R. Shou, G. Skott, A. Mitchel, U. Litabi, CH. Vaysi va qator boshqalar faoliyat olib borishdi. Turar joy arxitekturasida, eng avvalo oddiy va ajoyib rejaviy ishlanmalar sohasida qilingan ishlar aynan ushbu arxitektorlarga tegishlidir. Asosiy e'tibor turar joylar xonalarining tabiiy yoritilishiga, tabiat landshafti va atrofini o'rab turgan yashillik bilan uyg'unlikka qaratildi. Turar joylarni (shu jumladan, ularning tashqi ko'rinishi uchun) qurish davomida g'ishtdan va mahalliy qurilish ashyolaridan keng foydalanildi. Ushbu qurilish ashyolari yangi qurilayotgan binoga o'ziga xos bezak va ideallashtirilgan individual bo'yash imkonini berdi. XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi ingliz kottejlarining tashqi ko'rinishida turli xil arxitekturaviy jarayonlar qorishib ketdi. Amaliy bezaklar keng qo'llangan eklektik neogotika, neoklassikadan tortib individual turar joy arxitekturasining yorqin va haqqoniy o'ziga xosligini izlashgacha bo'lgan jarayonlarni kuzatishimiz mumkin. Ushbu jarayonda "san'at va hunarmandchilik" harakatida o'zlarini

ko'rsatgan hamda mashinalashgan ishlab chiqarishga qarshi bo'lgan, badiiy ijodda hunarmandchilikni himoya qilgan U. Morris va D. Reskinlarning roli beqiyos.

Bu davr arxitekturasida rasman "tarixiy" yo'nalish hukmron bo'lib qolaverdi. Butun yevropa davlatlaridan faqat Angliyada klassik an'analarini hikoya qilishni davom ettirildi. Londonning mashhur ansambllaridan biri – Kvadrant Ridjent-strit(arxitektor R. Blomfild), shuningdek, London grafligi Kengashining boshqaruv binosi(arxitektor R. Not), Londondagi Yuridik jamiyat binosi (arxitektor Ch. Xolden), Hayotni sug'urta qilish jamiyatining London uyi (arxitektor K. Grin) va ko'plab boshqalar neoklassika ruhida; Liverpuldagi yirik ingliz sobori(arxitektor G. Skott) neogotika uslubida qurilgan.⁸⁵

Angliyada yangi arxitektura yo'nalishlari arxitektor Charlz Makintosh (1868-1928-yy) faoliyatida ham namoyon bo'ldi. Uning mashhur asarlaridan biri – Glazgodagi Oliy badiiy o'quv yurti binosi hisoblanadi. U o'z davri arxitekturaviy g'oyalari uchun yuqoriligi va ajoyib kompozitsiyasi bilan ajralib turadi.

Shu bilan bir vaqtda ingliz arxitekturasida qurilish texnikasining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan dastlabki yangi jihozlar ham paydo bo'la boshladi. Sanoat korxonolari binolarida temir-beton konstruksiyalar ham qo'llaniladigan bo'ldi. 1903-yilda arxitektur E. Vud Staffordda yassi tomlik turar joy binosini qurdi. Arxitektorlar D. Barnett, Teyt va Lorn 1911-yilda Londonda "Kodak" firmasi uchun bino qurib berishdi. Uning qurilishida birinchilardan bo'lib po'lat karkas(qobirg'a, sinch)dan hamda keng oynali eshik va deraza o'rinlaridan foydalanishdi. Ushbu bezak vositalari binoning konstruktiv tizimini yashirishga xizmat qildi.

Biroq urushdan oldingi davrdagi ingliz arxitekturasidagi ushbu yangi uslublarni qidirish yagona xususiyat kasb etmadi va u hukmron mavqeini egallay olmadi. An'anaviy arxitektura shakllari o'z ustunligini saqlab qolaverdi.

⁸⁵ Е. П. Борзова. История мировой культуры. Москва. «Лань» С. 491

XULOSA.

Biz ko'rib o'tayotgan davr, tarixan qisqa davr bo'lishiga qaramay Angliya ijtimoiy-siyosiy jamiyatida va butun dunyoda eng sermahsul g'oya va tajribalar, kashfiyotlar, ixtirolar va xulosalar, umuman olganda madaniyatning boyish davri bo'lganligini ko'ramiz. Bitiruv malakaviy ishimda tadqiqotchi sifatida mavzu bo'yicha tarixchi, faylasuf, siyosatchi, adabiyotshunos, san'atshunos olimlarning bayon qilgan fikrlarini va olgan shaxsiy fikr va mulohazalarini, keltirib o'tishga harakat qildim. Bitiruv malakaviy ishining maqsadi ham vorisiylik negizida boyib borgan va bugungi madaniyat ilm-fan va taraqqiyotining asoslaridan bo'lgan Ingliz (Angliya) madaniyatining, nisbatan qisqa davrdagi ma'lum va noma'lum qirralarini o'rganish, shuning bilan jamiyat ma'naviyati va madaniyatining istiqboli uchun xizmat qilishini ta'minlashga qaratilgan.

XX asr madaniyati, uning rivojlanishi yo'llari xususida gap borar ekan, bunda shuni alohida ta'kidlash joizki, bu davrda yuz bergan ko'lamli ijobiy o'zgarishlar zaminida turlimintaqalar, mamlakatlar, elatlar va millatlar ijodkorligi, ularning yaratuvchan salohiyatining o'zaro uyg'unlashuvi, mantiqan bog'lanib, bir-birlarini boyitib, to'ldirib borishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Sivilizatsion jarayonlarning bu tarzda yaqinlashuvi, globallashuvi hamda jadallashuvi, tabiiyki, kishilik ma'naviyatining barcha sohalarida, xususan ilm-urfon, fan-texnika, texnologiyalar, kommunikatsiyalar tizimi sohalarining tezkor rivojlanishida sezilarli iz qoldirdi albatta. XX asr ilmiy-texnika taraqqiyotida juda ko'plab ob'ektiv omillar alohida o'rin tutadi. Birinchidan, bu sohaning muammolari turli mamlakatlarda faoliyat yuritgan, ilmiy maktablar yaratgan, muhim ilmiy kashfiyotlar qilgan daho allomalar, fan fidoyilarining ijodiy hamkorligi, sa'y-harakatlari tufayli o'z yechimini topganligi shubhasiz. Ikkinchidan, ijtimoiy taraqqiyotning avval erishgan darajasi, chunonchi, XIX asr davomida yuz bergan sanoat inqilobi, ilm-fan sohasidagi muhim kashfiyotlar, ularning samaralari alohida o'rin tutganligi aniqdir.

Ba'zi davlatlarda boshlang'ich ta'lim faqat XIX asrning oxirgi choragida umumiy va majburiy bo'lgan. Angliyada 1870 yilda liberallar kabineti boshlig'i U.Gladston parlamentdan majburiy boshlang'ich ta'lim to'g'risidagi qonunni o'tkazgan edi. Angliyada birinchi marotaba davlatning ta'lim tizimi joriy etildi, ungacha ta'lim anglikan cherkovi va boshqa sektalar qo'lida, xususiylar tadbirkorlar uchun esa daromad manbai va nihoyat xayri-ehson bilan bog'liq bo'lgan. Endilikda esa davlat tomonidan butun mamlakat bo'ylab maktablar ochildi. Ammo bu hali har bir oila o'z bolalarini boshlang'ich ta'lim olish uchun maktabga yuborish imkoniyatini oldi degan gap emasdi. Chunki bunday ta'limning bepul yoki majburiyligini maktab kengashlari belgilardi. Bunday kengashlarning xulosasi esa undagi kuchlar nisbati, ya'ni anglikan cherkovi bilan bog'liq konservativ kuchlarni yoki maktablarda cherkov ta'sirini kamaytirishga intilgan liberal kuchlar ustunligi bilan belgilanardi. Faqatgina 1880 yil va 1891 yillarda yangi qonunlarning qabul qilinishigina boshlang'ich ta'limning Angliyada bepul va majburiy bo'lishini ta'minladi. Shu uchun ham savodxonlik darajasi bo'yicha Angliya birinchi jahon urushigacha Germaniyadan orqada edi. Boshlang'ich ta'limdagi cherkovning ta'siri masalasida Angliyadagi ahvol Germaniyadagiga nisbatan mushkulroq edi. Agar nemislarda ikkita e'tiqod – katoliklar va protestantlar mavjud bo'lsa, inglizlarda hukmron anglikan cherkovidan tashqari unchalik ko'p bo'lmagan katoliklar va ko'plab turli sektalarga mansub kishilar mavjud edi. Angliyani «mingta cherkov mamlakati» da deyilishi bejiz emas.

XIX asr oxirida ham Angliyadagi cherkov maktablarida 2,5 mln. o'quvchi, davlat tasarrufidagi maktablarda esa 1,9 mln o'quvchi bor edi. Burjua demokratiyasining klassik davlati bo'lgan Angliyada ham boshlang'ich ta'lim dunyoviy bo'lmadi, ya'ni maktab cherkovdan ajratilmagan edi.

Madaniyat tarixida maorif masalalari muhim o'rin egallaydi. Jamiyat hayoti ma'rifiy sohasini tashkil etish bilan birga va o'z doira (orbita)siga barcha sinf va ijtimoiy guruhlarni jalb eta olishidan tashqari, maorif tizimi ma'naviy hayotning hamma jabhalariga sezilarli ta'sir ko'rsata oladi. Xalq ommasining professional ma'naviy ijod bilan qay darajada munosabatda bo'lishini ham maorif belgilab

beradi. Aynan maorif tizimi orqali ilmiy nazariyalar va badiiy boyliklar omma ongiga singib boradi. Ikkinchidan omma ongining «yuqori madaniyat»ga ta'siri ham omma qancha ko'p ma'rifatlashgan bo'lsa, shuncha ko'proq samara beradi. Boshqacha qilib aytganda maktab (boshlang'ichdan to oliysigacha) jamiyatdagi ma'naviy hayotning turli bosqichlari orasidagi asosiy bog'lovchi bo'g'in bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga maktab ta'limi yosh avlodga insoniyat yaratgan tajribani yetkazuvchi asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shaxsning shakllanish jarayonini, o'zi yashaydigan, ishlaydigan va kurashadigan jamiyatning ijtimoiy munosabatlariga ko'nikma hosil bo'lishiga tayyorlaydi. Uzluksiz ma'lumot olish g'oyasidan o'rin olgan obyektiv imkoniyatlar ham shuni nazarda tutadi.

Ma'rifatning ahvoli madaniyatning boshqa tarmoqlariga nisbatan ko'p jihatdan mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va siyosiy sharoitlarga bog'liq. Maktab tizimini tashkil etish va tartibga solish, o'quv yurtlarini moliyaviy ta'minlashda davlatning roli, ma'lum yoshgacha ma'lumot olishning majburiyligi, maktab va cherkov o'rtasidagi munosabatlar, o'qituvchi kadrlarni tayyorlash va boshqa shu kabi ko'p masalalar XIX asrning oxirgi 1/3 da diqqat markazda bo'lib, turli sinf va partiya vakillari o'rtasidagi kurash manbaiga aylandi. Asosiy kurash maorifning ma'nosi, uning g'oyaviy yo'nalishi, o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan bilimlar doirasi va o'qitish uslublari kabi masalalar atrofida bo'ldi. O'z ma'nosi jihatidan bu kurash burjua va demokratik adaniyatlar o'rtasidagi to'qnashuv bo'lib, aholining keng qatlamlari manfaatiga daxldor muammo edi, chunki deyarli har bir oilada o'sayotgan bolalarning kelajagi ma'lum ma'noda ularning oladigan ma'lumoti darajasiga bog'liq. Ma'naviy hayotning boshqa tarmoqlari singari, ehtimol ularga nisbatan ko'proq bo'lsa ham ajab emas, maorif sohasida turli o'ziga xos madaniyat elementlari mujassamlashgan, ayniqsa nosinfiy, umuminsoniy elementlar bilan sug'orilgan madaniyat mavjuddir. Burjuaziya uchun nafaqat «itoatkor», balki «epchil», «abjir» ishchilar ham kerak bo'lgan. Chunki ularning birinchisi hukmdorlarning siyosiy manfaatlari, nuqtai nazaridan kerak bo'lsa, ikkinchisi ijtimoiy va siyosiy betaraflik, umuminsoniylik

sohasi bilan kerak edi. Darhaqiqat, tez fahmlovchi, darrov e'tibor qaratish, to'g'ri qarorlar qabul qila olish qobiliyati va uning amaliy ijrosini ta'minlovchi, ya'ni mavjud ijtimoiy tuzumda bir ibora-«epchil», «abjir» so'zi bilan ifodalanuvchi kishilar zarur. Shuning o'ziyoq burjuaziyaning iqtisodiy manfaatlari siyosiy manfaatlaridan o'zgacha bo'lishiga qaramay uni ishchilarning ba'zi sohalardagi aqlu-zakovatini o'stirishni ta'minlashini taqoza etadi. Bunday «ma'naviy o'sish»ning asosiy imkoniyatini birinchi navbatda maktabdagi ta'lim berishi sir emas, chunki bu daraja eng avvalo ma'lumot bilan, savod bilan o'lchanadi. O'qishni o'rgangan kishi ma'naviy o'sishda muhim, sifatli sakrash qiladi, chunki insoniyat tabiat va jamiyatni o'rganishga bag'ishlangan bilimlar bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Hamma vaqt ham imkoniyati bo'lmasada, har holda gazeta va kitoblar bilan tanishishga yo'l ochiladi. Garchand nashr etilgan har qanday risola foyda keltiravermasa ham, lekin ma'lumotli, savodxon bo'lishning o'zi madaniyatning muhim, dastlabki asosi hisoblanadi va u albatta maktabdan olinadi.

Xulosa qilib aytganda madaniyat bir tekisda rivojlanuvchi jarayon emas. Ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy munosabatlar ta'sirida madaniyat taraqqiyotida inqirozli yoki sakrash holatlari ham yuz berib turadi Bitiruv malakaviy ishimda ushbu holatlarni hisobga olgan holda bu jarayonlarga kompleks va tarixiy nuqtai-nazardan yondashishga harakat qildim. Madaniy tradisiya jarayonlarida yaratilgan asar yoki ijod na'munasini o'rganishda muayyan siyosiy mafkuraga bog'liqlik jihatlari bor yo'qligini chuqur tahlil qilgan holda uni badiiy imkoniyatlaridan foydalanishni maqsad qildim. G'arb madaniyati va mafkurasining gumanist tomonlarini o'zlashtirish orqali uni milliy istiqlol g'oyasi tamoillariga moslashtirishni bosh vazifa deb qabul qildim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz – kelajak yo'q. T., 1998.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. T., 2008.
3. Karimov I.A. O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. T., 2012.
4. Родригес А. М. Понамарев М. В. Редакторий новая история страны
5. Владимир Малинкович. Очерки истории европейской культуры нового времени.
6. Григорьев И. В. Новая история стран Европы и Америки. М., МГУ. 2001.
7. Григорьева И.В. Новая история стран Европы и Америки. Начало 1870-х годов - 1918 г. 2001.
8. Драч Г. В., В. К. Королев, О. М. Штомпель. История мировой культуры. Ростов-на-Дон. «Феникс» 2-изд. 2002. Ст. 356-357.
9. Жигалина О.И. Великобритания на Среднем Востоке. XIX – начало XX в. М., 1990.
10. Жияков И. от. ред. История мировой культуры. Ростов-на-Дон. 2002.
11. История дипломатии. Под ред. В.А. Зорина и др. Т.2.М., 1963.
12. Кертман Лев. География, история и культура Англия.
13. Кнабс Г. С., И. В. Кошдаков, Т. Ф. Кузнецова и др. Культурология: История мировой культуры: Учеб. Пособие. М.: Издательский центр «Академия», 2003.
14. Лавровский В. М. Парламентские огораживание общинных земель в Англии конца XVIII – начала XIX вв. М., Л., 1940.
15. Лавровский В. М. Промышленный переворот в Англии (история в источниках) М., Л., 1925.
16. Луков А.. История культуры Европы XVII-XIX веков. М., ГИТР. 2011. С. 50-76
17. Мортон А.Л. История Англии. М., 1950.

18. Новая история в документах и материалах. Под ред. Н.М.Лукина и В.М.Далина. Вып. 1-2. М., 1935.
19. Новая история стран Европы и Америки XVI-XIX века. Ч 2. Под ред. А. М. Родригеса, М. В. Пономарева. М.: Гуманитар. изд. центр ВЛАДОС. 2010.Ст. 477-564
20. Новая история стран Европы и Америки. Под редакцией И. М. Кривогуза. 5-е издание. М.: Дрофа, 2005 г.
- 21.Норин Е., О. Швидковский, С. Хан-Магомедов. Искусство Великобритании. М., МГУ. 2001. С. 57.
22. Парфенов И.Д. Колониальная экспансия Великобритании в последней трети XIX века. М., 1991.
23. Под общей редакцией Ю. Д. Колпинского и Н. В. Яворской. Всеобщая история искусств, Т 5. М.: Гос. Издательство «Искусство». 1964.
24. Сборник документов по истории нового времени. Экономическое развитие и внутренняя политика стран Европы и Америки 1870-1914 гг. Сост. П.И.Остриков, П.П.Вандель. М., 1989.
25. Туполева Л.Ф. Социалистическое движение в Англии в 80 – е годы XIX века. М., 1973.
26. Флоренский П.А. Иконостас: Избранные труды по искусству. – СПб.: Мифрал, Русская книга, 1993.
27. Хрестоматия по новой истории. Часть 1. 1642 – 1870 / Под. Ред. А. И. Молока и В. А. Орлова. М. 1958.
28. Хрестоматия по социально-экономической истории Европы в новой и новейшей время. Под ред. В.П. Волгина. М., Л., 1929.
29. Чекалов Д. А. Кондратов В. А. История мировой культуры. Ростов-на-Дон. ФЕНИКС. 2005 стр. 304-314
30. Эргашев Ш. Жаҳон тарихи. Т., Шарқ. 2015.

Internet resurslari

1. <http://www.eu.spb.ru/history/index.htm>.
2. <http://www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html>

3. [http: // www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz).
4. <http://www.history.kemsu.ru>
5. <http://www.kulichki.com>
6. <http://www.world.history.ru>
7. [www. history. ru](http://www.history.ru)

ILOVALAR GLOSSARIY

Madaniyat – bu insonlar tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar yigindisi, shuningdek madaniyat – bu insonlarning ijodiy faoliyati tufayli yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar majmuigina bo'lib qolmay, ayni paytda u jamiyat taraqqiyotining darajasini ham ifodalaydi, ya'ni, jamiyatdagi bilim, mezon va qadriyatlarning yigindisi madaniyatda gavdalanadi. Madaniyat arabcha madina (shahar, kent) so'zidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotni 2 turga bo'lib, birinchi badaviy yoki sahroiyl turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar. Badaviylik – bu ko'chmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik esa shaharda o'troq bo'lib yashab, shaharga xos turmush tarzida yashovchi xalqlarga nisbatan ishlatilgan.

Geopolitika – bu atamani fanga shvesiyalik olim R.Chellen olib kirdi. Bu atama 1-jahon urushi arafasida keng qo'llana boshlandi. Nemis olimi F.Retsel (1844-1904) davlat siyosati va mamlakatning geografik vaziyati orasidagi o'zaro aloqadorlik masalasini ko'tardi. U xalqlarda «alohida makonni xis qilish» qobiliyati mavjudligini e'tirof etgani holda o'z chegaralarini kengaytirishga intilayotgan xalqlarga e'tibor qaratdi. K.Xausxofer (1869-1946) mohiyatan tajavuzkorlik tabiatiga ega bo'lgan «nemis millati hayotiy makoni» haqidagi gipotezani ishlab chiqdi.

Mahdiyachilar qo'zg'aloni – Sudanda ingliz mustamlakachilari, Turkiya, Misr hukmronligiga qarshi ko'tarilgan qo'zg'alon (1881-1898). Unga mahdiylik asoschisi Muhammad Ahmad Mahdiy (uning o'limidan keyin Abdulloh ibn al Said Muhammad (1899) rahbarlik qilgan.

Konservatorlar partiyasi – Buyuk britaniyadagi asosiy siyosiy partiyalardan biri (rasmiy nomi – konservativ va yunionistik tashkilotlarning milliy ittifoqi). 1867 – yilda torilar partiyasi negizida tashkil topgan.

Ingliz – Afg'on urushlari - buyuk britaniyaning Afg'onistonga qarshi mustamlaka bosqinchilik urushlari (1832-1842, 1878-1880).

Birinchi Ingliz – Afg'on urishi (1832-1842) – inglizlar armiyasining asosiy kuchlari Qandahor va G'aznani egallab, Qobulga chiqish maqsadida Bo'lan yo'lagi orqali Jan-G'arbiy Afg'onistonga bostirib kirishi.

Ikkinchi Ingliz – Afg'on urishi (1878-1880) – (Xaybar, Kurram va Bo'lan yo'lagi orqali) bostirib kirishi bilan boshlangan.

Ingliz – Xitoy urushi (1840-1842), birinchi afyun urushi – Angliyaning Xitoyga qarshi bosqinchilik urishi. Angliya Xitoyni O'ziga qaram, yarim mustamlaka yoki mustamlaka mamlakatga aylantirish maqsadida boshlagan.

Ingliz – fransuz – Xitoy urushi (1856 – 1860), ikkinchi “afyun” urishi – Angliya va Fransiya tomonidan Xitoyga qarshi uyishtirilga bosqinchilik urushi.

Iyerarxiya - (yun. hierarchia, hieros – avliyo va arche – hukmronlik, hokimiyat) – bir butun nasa yoki hodisalar ayrimqismlari yoki elimentlarining yuqoridan quyiga tomon bir tartibda joy olishi. Fanga iyerarxiya tushunchasi XIX asrning ikkinchi yarmida kirib keldi. Dastlab iyerarxiya jamiyatning sinfiy tabaqalanishi va hokimiyat tuzilishini tavsif etish maqsadida qo'llanilgan.

Vindzorlar sulolasi - Ingliz qirollari sulolasi (1901-yildan). 1917-yilgacha Saksen-Koburg-Got sulolasi deb atalgan. Vindzorlar sulolasi vakillari: Eduar VII, Georg VIII, Georg VI, Elizabetta II.

Britaniya imperiyasi - Buyuk Britaniya va unga qaram bo'lgan mustamlakalarni ifodalaydigan tushuncha. 1870-yillardan rasman qo'llanila boshlangan. Britaniya imperiyasi tarkibiga briataniya bilan birgalikda hamma dominonlari va mustamlakalari - Irlandiyan (XII asr), Shimoliy amerika (Verginiya) (1607), Gollandiya va Shimoliy Amerikadagi boshqa hududlar (1652-1654; 1665-1667 va 1672-1674), Portugaliya va uning mustamlakalari (XVII asr o'rtalari), Ispaniya mustamlakalari , Kanada, Shimoliy Amerikaning qolgan qismi (1756-1763), Bengaliya (1757), Birma (1885), Iroq, Falastin, Transiordaniya, Tanganika, Togo va Kamerunning bir qismi (1914-1918) va boshqalar kirgan edi.

Birinchi jahon urushi (1914-1918) – davlatlarning ikki kaolitsiyasi: Markaziy davlatlar (Germaniya, Avstruya-Vengriya, Turkiya, Bolgariya) va boshqa Antanta (rossiya, Franiya, Buyuk Britaniya, Serbiya, keyinchalik Yaponiya, Italiya, Ruminiya, AQSh, va boshqa jami 34 davlat o'rtasidagi urush.

Antanta – (frans. Entente – bitim) Buyuk Britaniya, Fransiya va Rossiyaning Germaniya, Avstriya – Vengriya hamda Italiya ittifoqiga qarshi tuzgan ittifoqi. “uchlik ittifoqi”, “Uchlik bitimi” deb ham ataladi. Antanta 1904-1907 - yillarda shakllandi. Har ikkala ittifoqning maqsadi XIX asr oxirida bo'lgan dunyoni qayta taqsimlashdan iborat edi.

Angliya – Amerika urishi (1812 -`1814) — bir tomondan, Angliyaning AQSh savdo savdosi va iqtisodiyotinibarbod qilishga intilishi va ikkinchi tomondan, AQShning o'z yerlarini kengaytirish, Kanadani bosib olish yo'lidagi intilishlari oqibatida vujudga keldi.

Angliya – Burlar usushi (1899 -1902) — Angliyaning Janubiy Afrikadagi Bur (Transvaal va oranj) respublikalariga qarshi olib brogan bosqinchilik urushi. Angliyaning Bur respublikasida yashovchi inglizlarga ham saylov huquqi berish to'g'risidagi talabiga Transvaal prezidentining rad javobi urushning kelib chiqishiga bahona bo'ldi.

Angliya – Rossiya bitimlari (1873, 1885, 1907)-1873 yilgi bitimi Angliya va Rossiya hukumatlari o'rtasida 1872-yil oktabr – 1873 - yil yanvarda bo'lgan muzokaralar natijasida Turkiston “Buffer” zonasi - oraliq yerlari haqida tuzilgan.

Gannoverlar sulolasi – Ingliz qirollari sulolasi (1714—1901). Sulola vakillari: Georg II, Georg III, Georg IV, velgelim IV, Vektoriya

Estetika (grek.aisthesis – hissiy idrok) – insonning olamni estetik o'zlashtirishi qonuniyatlari haqidagi, go'zallik qonunlariga muvofiq qilinadigan ijodning mohiyati va formalari haqidagig fan. U taxminan 2,5 ming yil burun Misrda, Vavilonda, Hindiston va Xitoyda vujudga keldi.

Formalizm (lot.forma-forma, shakl) – badiiy metod, uning asosida san'atda forma absolyutlashtiradi, estetiklashtiriladi, realizmning qarama-qarshisi. XIX asr oxiri –

XX asr boshlarida paydo bo'lib san'atning ko'p oqimlari va maktablarini (futurizm, kubizm, abstraksionizm, syurrealizm, fovizm, tashizm va boshqa) birlashtiradi.

Fantaziya (grek. phantasia-psixik obraz, hayol mevasi) – yaratiluvchi tasavvurlar va obrazlarning alohida kuchi, g'ayri oddiyligi bilan xarakterlanuvchi hayol.

Tanqidiy realizm – XX asr 20-30 yillarda AQSh filosofiyasidagi oqim (Dreyk, Lavdjoy, Pratta, Rodjers, Sellars va b.)

Sentimentalizm (fr.sentiment) – hissiyot. Badiiy metod. XVIII asr o'rtalarida Angliyada paydo bo'lgan va Yevropa adabiyotida tarqalgan. Badiiy xususiyatlariga ko'ra klassisizmga qarama-qarshi turadi.

Realizm (lot.realis) – ta'sirli, moddiy. Badiiy metod bo'lib san'atning obyektiv biluvchilik va estetik o'zgartiruvchilik tabiatini eng to'liq gavdalantiradi. Realizmning elementlari san'at tarixining ilk bosqichlarida ko'ringan. Realizm Uyg'onish davrida tarkib topadi (Servantes, Shekspir) XIX asr o'rtalarida tanqidiy realizm san'atida o'z ifodasini topadi (Stendal, Balzak, Dikkins, Xogart va boshqa)

Neorealizm – XX asr ingliz – Amerika falsafasi oqimi. Vakillari: Angliyada Mur, Rassel, Broud; AQShda Peri, Montegyu va boshqalar

Neopozitivizm – pozitivizmning hozirgi zamon formasi XX asrdagi falsafiy yo'nalish.

Kosmopolitizm - (grek.kosmopolites) – dunyo grajdani. Bu nazariya «odamzodning birligi» uchun vatanparvarlik, milliy madaniyat va qadriyatlardan voz kechishga da'vat etadi.

Madaniyat tarixi – har bir xalq, sivilizasiya, davr madaniyatni betakror namunalarini bergani bois ulardagi umumiylik va fikrni qiyosiy tahlilini beradi,

madaniy taraqqiyotni tarixiy bosqichlarini, ulardagi yangilanish va an'anaviylikni konkret shakllarini o'rganadi.

Madaniyat falsafasi – madaniyatning eng umumiy xislatlarini, uning jamiyat, inson, etnos mentaliteti va ruhiyati, an'ana va taraqqiyot dinamikasi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni tahlil qiladi, madaniyatshunoslik fanida ishlab chiqilgan g'oyalar, nazariyalar va konsepsiyalarni umumlashtiradi, undan falsafaga, dunyoqarashga molik bo'lgan xulosalarni chiqaradi, falsafani o'zini madaniyat va ma'naviyatga oid yangi tushunchalar va tasavvurlar bilan boyitadi.